Birinchidan, 1917 yilda sodir bo'lgan oktabr to'ntarishi va buning natijasida hokimiyatni qo'lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g'oyani avval boshdanoq iziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati o'rnatilgan dastlabki kundanoq hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g'ururi, xaq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda o'rnatilgan bolsheviklar tuzumi chor Rossiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi isha dastlabki kunlardanoq oshkor bo'lgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum o'rnatilgan kundanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf — odatlari, milliy qadriyatlari toptaldi. Қozi sudlovi bekor qilindi vaqf erlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qiyildi.

Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi istiqlolchilik harakatining butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini itadi, xolos. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bilib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi istiqlolchilik harakati 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar zdi. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e`tirof etishicha, istiqlolchilik harakatida asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi. Ularga shahar axolisining aksariyat qismi: iziga tiq badavlat oilalarniig vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda ba`zi boylar qo'shildi. Istiqlolchilar safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar — ziyolilar ham ko'pchilikni tashkil qilardi va ular jadidlar orasidan ajralib chiqqan Turkiston munavvarlari va muborizlari edi. Bir siz bilan aytganda, istiqlolchilar safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

Dastlabki istiqlolchi guruhlarning tashkil topishi Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan bog'liqdir.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qishiniga boshchilik qo'lgan Kichik Ergash qo'rboshi 1918 yil 19 — 21 fevralda Қiqon shahrida qizil askarlarga qarshi bo'lgan "ikki kunlik urush natijasida mag'lubiyatga uchradi, uning 2.000 kishilik armiyasidan omon qolgan ikki yuzga yaqin kishi Kichik Ergash rahbarligida Қiqon uezdidagi Bachqir qishlog'iga (Қiqondan 18 chaqirim shimoli — sharq tomonda) jang bilan chekinishdi". Izining kindik qoni tiko'lgan Bachqir qishlog'ida Kichik Ergash yigitlari bilan qal`a shaklida istehkom qurib, mustahkam irnashib oldi. 26

fevral kuni Bachqirga 5 ta qizil gvardiyachilar otryadi va dashnoqlar drujinasi hujum qilishdi. 27 fevralda bo’lgan janglarning birida Kichik Ergash shaxid bilgach, uning irniga Katta Ergash qo’rboshi Farg’ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Sovet hokimiyati va bolsheviklarga qarshi milliy istiqlol harakatini tashkil qilish endi uning zimmasiga tushadi.

1918 yil mart oyiga kelib Farg’ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo’rboshi dastalari faoliyat ko’rsatardi. Madaminbek Skobelev uezdida, Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg’ilon atroflarida, Omon Polvon, Қobul, Sotiboldi Қozi va Rahmonqul Namangan uezdida, Parpi qo’rboshi Andijon shahri atrofida, eshmat qo’rboshi Қiqonning Buvayda qishlog’ida, Umar Choli Urganji qishlog’ida, Jonibek Қozi Izgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edi.

Bu tarqoq holda bo’lgan istiqlolchilik harakatini yagona qimondonlikka biysundirish va birgalikda harakat qilish maqsadida "Shiroi Islomiya" va "Shiroi Ulamo" tashkilotlari a`zolarining tashabbusi bilan 1918 yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog’ida Farg’onadagi butun qo’rboshilarning birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda 40 dan ortiq yirik qo’rboshilar qatnashdi. Farg’ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining boshlig’i qilib Katta Ergash saylandi va unga butun musulmon qishinlarining Oliy bosh qimondoni - "Amir al muslimin" unvoni berildi. Katta Ergash qo’rboshining irinbosarlari qilib Madaminbek va Shermuhammadbek tayinlandi.

Umuman olganda, Farg’ona vodiysida 1918 yilning o’rtalariga kelib, taxmiian yuzga yaqin qo’rboshilar o’z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bormoqda edi. Lekin shu bilan birgalikda ayrim kichik guruhlar o’z manfaatlari yilida to’ntarishdan keyingi tartibsiztshklar va boshboshdoqlikdan foydalanib xalqni talash, boylik orttirish maqsadida harakat qilib aholi orasida obro’sizlandilar. Bular kichik - kichik guruxlar bo’lib, ular umumiy istiqlolchilik harakatiga qo’shilmas, o’zlari mustaqil harakat qilar edilar. Sovet hukumati esa bundan ustalik bilan foydalanib, Turkiston xalqlari o’rtasida xaqiqiy istiqlolchilarni obro’sizlantirishga, ularga "bosmachilar" deb tamg’a osishga harakat qilar edi.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining iziga xos milliy xarakteri va xususiyatlari mavjud bilib, ular harakatdagi qo’rboshilar dastalari va guruxlari faoliyatida, ularning maqsad va istaklarida iz ifodasini topgan edi. Bularda islom shariati qonun - qoidalari asosidagi milliy davlat barpo qilishdan tortib, milliy demokratik tartibdagi mustaqil davlat tuzish kabi g’oyalar mujassamlashgan edi.

M.Frunze bundan sal oldinroq Turkiston fronti qimondoni vazifasini bajarishga kirishishi munosabati bilan 1919 yil 11 avgustda chiqargan buyrug’ida Turkiston frontining tashkil qilinishidan maqsadni quyidagi tarzda ochiq bo’ldirgan edi: "Turkiston yurishining asl maqsadi, butun Turkistonni ishg’ol qilishdan iboratdir». Chunki Farg’ona vodiysidagi bu harakat Markaz va butun Turkiston o’lkasida bolsheviklar rejimiga qarshi ko’tarilgan xalq harakati bilib, sovet hokimiyatini larzaga keltirdi, ayniqsa, Farg’onada uni halokat yoqasiga olib keldi.

1920 yil 18 avgustda 2-Turkiston iqchi diviziyasi komandiri F.Karpov Turkfront qimondoni M.Frunze bilan telegraf orqali bevosita suhbatida shunday

degan edi: "Farg’onadagi urush qaroqchilarga qarshi kurash bilmasdan, balki bu erda kurash tub aholini sovet hokimiyatiga qarshi tashkiliy ravishdagi qizg’oloni hisoblanadi. Bosmachilar bilib itgan janglarda katta kuch yiqotsalarda, hozirgi vaqtda ularning safi yangidan, hattoki, avvalgidan ortiq darajada tilib bormokda, har bir miltiqqa 5 ta nomzod da`vogarlik qilmoqda".

Turkiston avtonom sovet respublikasi XKS raisi Қayg’usiz Otaboev 1922 yil iyulida bo’lgan Turkiston MIҚ 4 - plenumida istiqlolchilik harakati natijasida o’lkada vujudga kelgan vaziyatni to’g’ri baholashga harakat qilib, shunday degan edi: "...Dastlabki davrlarda bosqinchilik ruhida bo’lgan bu harakat endilikda siyosiy mazmun kasb etdi. Shuni ta`kidlash lozimki, 1919—1920 yillarga kelib Farg’onada qaroqchilik, bosmachilik emas, balki iziga xos xalq qizg’oloni vujudga keldi.

Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to’g’ri baxo berishni ham bilmadik, u xalk, qizg’oloni bo’lgani xolda bosmachilik deb atadik. Bosmachilik mohiyatan talonchilik degan ma`noni anglatadi, bizning ushbu harakatga bergan noto’g’ri ta`rifimiz masalani hal etishda noto’g’ri yondoshuvlarga olib keldi. Va alaloqibat 4 yil davomida biz bu harakatning biron-bir jihatini tugata olmadik". Bu tarixiy hujjat shundan dalolat beradiki, sovet hokimiyatining Turkistondagi rahbarlari izlari istamagan holda istiqlolchilik harakatiga va uning mohiyatiga ilk bor to’g’ri baho berishga, ko’tarilgan xalq harakatini sovet tuzumiga, bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli qizg’olon ekanligini tan olishga majbur bo’ldilar. Bu isha davr uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Markaziy sovet hokimiyatining butun Turkiston o’lkasida yuritgan shovinistik va mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholi manfaatlari bilan hisoblashmay, milliy qadriyatlarni oyoqosti qilinishi istiqlolchilik harakatining doimiy ravishda avj olib borishiga hamda uzluksiz davom etishiga, ular safining muntazam ortib borishiga, hatto ularning milliy tarkibini baynalmilallashuviga olib keldi. Turkistondagi istiklolchilik harakatiiipg milliy tarkibi asosan tub joy aholisi izbek, tojik, qirg’iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, uyg’urlardan iborat edi. Ayniqsa, Madaminbek iz yigitlari safida har xil millat vakillari bilishiga e`tibor berdi. U Farg’ona vodiysidagi rus aholisiga murojaat qilib, iz armiyasiga qo’shilgan har bir oddiy askarga oyiga ming simdan, zobitlarga esa ikki ming simdan maosh tilanishini va ularning diniy e`tiqodlariga dahl qilinmasligini e`lon qildi. Madaminbek qishinlari bilan Jalolobodda turgan K.Monstrovning krest’yanlar (dexqonlar) armiyasi o’rtasida 1919 yil 2 sentyabrda sovetlarga qarshi birgalikda kurashish uchun izaro bitim tuzilganligi yuqoridagi fikrimizga dalildir.

Shuningdek, istiqlolchilar safida ayrim tatar va boshqird harbiylari, Turkiya va Afg’onistondan kelgan juda oz miqordagi zobitlar ham bor edi. Masalan, arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, Shermuhammadbek lashkarlari safida "12 turk harbiy instruktori bo’lgan".

Istiqlolchilarning jang qilish taktikasi ham iziga xos edi. Ularning safida maxalliy sharoitni puxta bo’lgan yilboshlovchilar ko’p bilib, ular bilajak jang shart-sharoitlarini oldindan bilishgan: chunonchi, qizil askarlar miqdori, ular qurol — yarog’ining turi va soni, hujum usullari yoki chekinishi — hamma — hammasi oldindan puxta irganilgan. Isha davr tarixiy hujjatlarining guvohlik berishicha,

istiqlolchilar "razvedkasi ajoyib ishlar", janglarda bilsa "ko’p hollarda maxalliy aholi tomonidan qillab — quvvatlangan bosmachilar g’olib chiqishar edi". Istiqlolchilar mahalliy sharoitni yaxshi bo’lganliklari uchun hovli va bog’larda, qishloqlardagi devorlar ortida, mahalla va guzarlarda, tog’ — toshlarda, chil — biyobonlarda, odam borishi qiyin bo’lgan daralarda ham erkin harakat qilishgan.

Istiqlolchi dastalarning bunday kurash usullari sovet qishinlariniig ularga qarshi itkazayotgan harbiy operatsiyalarini qiyinlashtirar edi. Farg’onadagi milliy istiqlolchilar bilai kurashning iziga xosligini tavsiflab, Turkiston frontining qimondoni M.Frunze buyruqlarining birida shunday e`tirof etadi: "Axoli zich joylashgan va inqir — chinqirlari ko’p Farg’ona rayonlarida shaykalarni ta`qib qilish juda qiyin vazifa bilib, haddan tashqari katta kuch — quvvatni talab qiladi... Barcha tomonlari ariqlar bilan kesishgan va bir — birini tisib turgan tog’lar bilan qurshalgan tumanlardan iborat bo’lgan, aholisi zich joylashgan Farg’ona vodiysida kurash haddan tashqari mushkul edi. Ҳoldan toydirilgan dushman bir joyda tarqalib ketsa, dam olib hamda pastqam va ovloq iriplarda kuch tiplagach, yana boshqa joylarda paydo bilardi. Ularning qiqqisdan qo’lgan hujumlari hali jangga tayyorgarlik kirishga imkoniyati bilmagan jangchilardagina emas, balki barcha axoli o’rtasida ham tixtovsiz asabiy ziriqish tug’dirardi va shu sababli Farg’onada kurashning usullari boshqa frontlardagi kurash usullaridan farq qiladi. Bu erda front chizig’i yiq, u hamma joydan itadi".

Istiqlolchilarning iziga xos bu kurash usullari, ularning xalq ommasi tomonidan doimo qillab — quvvatlanishi qizil askarlariipg tobora g’azabini qizg’atardi. Natijada sovet armiyasi jangchilari butun — butun shahar va qishloqlarning kulini kikka sovurishar, qishloqlarni havodan turib samolyotlarda bombardimon qilishar, tinch aholini qirib tashlashar, Farg’ona xalqini zaharli gaz ishlatib big’ib ildirishar, qisqasi M.V.Frunze va keyinchalik S.S.Kamenev tomonidan Maxsus Turkiston uchun ishlab chiqo’lgan "Bosmachilikka qarshi kurash yiriqnomasi"ni sizsiz bajarishar edi.

Shunday qilib, 1918 yil fevralda dastlab Қiqon atroflarida boshlanib, keyinchalik Farg’ona vodiysi va butun mintaqani qamrab olgan istiqlolchilik harakati sovet rejimi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qaratilgan bilib, ajdodlarimiz Turkiston mustaqilligi uchun xayot — mamot kurashiga otlangan edilar.

## *ADABIYOTLAR:*

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yiq. -T.: Sharq, 1998.
2. A`zamxijaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Ma`naviyat. 2000.
3. A`zamxijaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Ma`naviyat, 2000.
4. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O’zbekiston tarixi. -T.: 1994.
5. Validiy A.Z. Bilingannni biri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.

6. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2000.
7. Mustafo Chiqay ig'li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1992.
8. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O'zbekiston. 2000.
9. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
11. O'zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
12. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
13. Xasanov M. Turkiston muhtoriyati: haqiqat va uydirma. G'G'Fan va turmush. 1990. 9,10,11-sonlar.
14. Doniyorov Sh. Muhtoriyat qismati. G'G'Sharq yulduzi,1991. 12-son.
15. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. -Andijon, «Andilon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004.
16. Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida iylar. G'G'Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.

## 2-MAVZU: FARG'ONA VODIYSIDA MADAMINBEK VA ShERMUHAMMADBEK FAOLIYATI. FARG'ONA MUVAQQAT MUXTORIYAT HUKUMATI VA TURKISTON-TURK MUSTAQIL ISLOM JUMHURIYATI.

**REJA:**

1. Istiqlolchilarning Madaminbek tomonidan yagona bayroq ostiga birlashtirilishi.
2. Rus krest'yanlar armiyasi bilan ittifoq. Andijon, Ish va Jaloloboddagi mag'lubiyatlar.
3. Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumatining tuzilishi va faoliyati.
4. Shermuhammadbek boshchiligidagi Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyatining tuzilishi.
5. Shermuhammadbekning Buxoro va Xorazm istiqlolchilari va Shermuhammadbekning xorijiy davlatlar bilan munosabati.
6. Shermuhammadbekning Afg'oniston va Turkiyadagi xayot iva faoliyati.

MAQSAD: Turkiston istiqloli uchun kurashda Muhammad Aminbek – Madaminbek, Shermuhammadbeklarning tutgan irni va ular tomonidan tuzilgan muxtor hukumatlar haqida tushuncha berish.

Turkistondagi qo'rboshilar o'rtasida shubhasiz Madaminbek (1892—1920) katta irin tutadi. Madaminbekning asl ismi Muhammad Aminbek bilib, u Marg'ilon atrofidagi Sikchilik qishlog'ida hozirgi Toshloq tumanining Sadda qishloq fuqarolar yig'ini xududidagi o'rtahol Ahmadbek oilasida 1892 yilda tug'ildi.

Madaminbekning bir akasi va ikki opasi bo'lgan. Ma`rifatli oilada voyaga etgan Madaminbek to'g'ri sizli, distlariga sadoqatli, mulohazali va diyonatli bilib isdi. U yoshligidanoq el—yurtga tanilgan insonlardan bo'lgan.

Madaminbek iz qishlog'idagi maktabda savod chiqargach, tijorat bilan shug'ullanayotgan mahalliy boylar va ruslarning savdo dikonlarida ishladi. U yoshligidan tojik, rus, frantsuz tillarini puxta irgangan.

Birinchi jahon urushi arafasida mustamlakachi Rossiya Ҳukumatidan norozi bilib, yoniga iziga ixshagan yigitlarni tiplab bosh ko'tardi. Politsiya Madaminbekni 1914 yili qamoqqa oldi. Uning qamalishi xususida bir—biriga zid va chalkash fikrlar bor. Lekin ularning birortasi ham hujjatlarga asoslanmagan. Kipincha u iz xotinini ildirgani uchun qamalgan deyishadi. Aslida bunday emas. Қamalgunga qadar uning Қumrixon degan xotini bo'lganligi to'g'ri. Ammo Madaminbekni Sibirdagi Nerchinsk degan joyga katorgaga olib ketishgach, ko'p itmay u ayol boshqa turmush qilib ketadi. Sud esa Madaminbekning izi tan olmagan ayblarni ham unga tinkab, 14 yil katorga ishlariga hukm qiladi. Madaminbek aslida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi kurashganligi uchun ham kamoqqa olingan edi.

1917 yildagi fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida Madaminbek ozod qilindi va u Marg'ilonga qaytib keldi. Shunda "Shiroi Ulamo" jamiyatining rahbarlari Madaminbekni shahar militsiyasi boshlig'i — qo'rboshisi lavozimiga bejiz tavsiya etishmaydi. Agar u qotil va ig'ri bo'lganida nufuzli ulamo va ziyolilar unga bu lavozimni taklif etishmasdi. Shunisi xarakterliki, Turkistonda bolsheviklar hokimiyatni ziravonlik bilan egallagach, Farg'ona viloyati harbiy komissari K.Osipov Madaminbekni Marg'ilon militsiyasi boshlig'i etib tayinlash haqidagi buyruqqa qil qiyadi va tegishli qurol—yarog' bilan ta`minlaydi. Madaminbek 1918 yil yanvar oyining oxirigacha shu lavozimda xizmat qildi.

Madaminbek Қiqon xoni bilish uchun emas, yurtida tinchlik o'rnatish va behisob qon tikilishini to'xtatish uchun qiliga qurol ushladi. Madaminbekning istiqlolchilar safiga kirib kelishi ham iz mujohid birodarlaridan ancha farq qiladi. 1918 yilning boshigacha dunyo kirib, fikr - mulohaza yuro'tib hayotning ko'p mashaqqatlarini tortgan 25 yoshlar atrofidagi bu yigit Marg'ilonda haqiqat va adolat ximoyachisiga aylanar ekan, dastlab sovet xokimiyati tomonida turgan edi. Biroq sovet rojimining xalqqa qarshi siyosati Madaminbekni ozodlik uchun kurashga undadi. Madaminbek atrofida Marg'ilon va Toshloqdagi jasur, chapani yigitlar tiplanishdi. "YAkkatut volosti Garbuva (Garbobo) qishlog'idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo'shilardi", — deb 1918 yilda yoziladi hujjatlarning birida.

Ma`noli qilib aytganda, qadim Turonyurtda asrlardan buyon mavjud bo'lgan va rus mustamlakasi natijasida unutilayozgan javonmardlik harakati "axiylik" qaytadan alanga olgandek bo'ldi.

Madaminbekning rafiqasi Saodatxon ayaning xotirlashicha, u o'rta biyli, tiladan kelgan, ikki yuzi qizil, qora kizlari charahab turgan, xotirjam gapiradigan odam bo'lgan. Madaminbek juda xudojiy va namozxon edi, har qanday sharoitda bilsa ham besh mahal namozni kanda qilmasdi. Shu bilan birga Madaminbek kitob iqishni ham yaxshi kirgan. Fuzuliyning devonini qaerga borsa doim izi bilan birga

olib yurgan. Ba`zi manbalarda yozilishicha, Madaminbek Chilpon she`rlarini sevib iqigan.

1918 yil bahorida istiqlolchilar safiga uzil-kesil itgan Madaminbekning qil ostida dastavval 1000—1500 ta yigit bor edi. "Dehqondan singgi xalatini tortib olgan" sovet hokimiyatiga qarshi kurashish Madaminbekning asosiy matlabi bo’lgan. Milliy ozodlik harakati safiga Madaminbek singari salohiyatli sarkardaning kelib qo’shilishi juda katta ahamiyatga ega bo’ldi. Bu paytga kelib boshqa qo’rboshilar "sovetlar bilan hamkorlik qilish"dek noyob va achchiq tajribaga ega emas edilar. Ular Turkistonda ruslar hukmronligini tugatishni iz oldilariga maqsad qilib kiyishgan bilishsada, harbiy tayyorgarliklari ancha past bo’lgan.

Madaminbek iz qishini bilan asosan Marg’ilon shahri va uning atrof tumanlarida faoliyat ko’rsatgan. Madaminbek qil ostida Soli Maqdum, Ismoil Polvon, Usmonbek, Fayoz Maxdum, Қozoqjon bek, Xoshim Polvon kabi yirik kirboshilar bilgai. Soli Maxdum Madaminbekning irinbosari va ing qili bidgan mohir qo’rboshi edi. Bulardan tashqari Madaminbek qil ostida yana 1918—1919 yillarda Baliqchidan Mamajon boyvachcha, Ikkisuv oralig’idan Boytuman Ҳoji, Buloqboshidan Mulla Juman, Valikdan Mirkarim, Nurulla Mahsum va Abdullajon, Uchqirg’ondan Nazariddin mingboshi, Loshmondan Tixtavoy ponsod, Қumariqdan Boltaboy, YOzyovondan YUsuf Polvon, Қorasoqoldan Ergash kichik, Қoratepadan Қurbon, Varzikdan Abdullajon va boshqa qo’rboshilar ham faoliyat ko’rsatishgan.

"1919 yil yanvarida Madaminbek qil ostida 16.000 kishidan iborat armiya bo’lgan", — deb ta`kidlanadi Farg’ona viloyati soveti nomiga 1919 yil 27 yanvarda yillangan ita shoshilinch ma`lumotnomada. 1919 yil o’rtalariga kelib esa Madaminbek Қil ostida 25.000 yigit sovet hokimiyatiga qarshi istiqlol janglarini olib borishgan. Bu paytda Shermuxdmmadbekda 20.000 yigit, Katta Ergash qo’rboshida bilsa 15.000-16.000 yigit bo’lgan.

Қizil armiya qismlari bilan bo’lgan bir qator janglarda Katta Ergash qo’rboshi mag’lubiyatga uchragach, tarqoq xoldagi Қirboshilar kuchini 1918 yil kuzida Madaminbek yagona qil ostiga birlashtirishga muvaffaq bo’ldi.

"Muhammad Aminbek marg’ilonlik bilib, nihoyat siyosatdon, botir, tadbirli qaxramon edi, -deb ta`riflaydi uni xorijda yashovchi yurtdoshimiz Shahobiddin YAssaviy. Ozod Turkiston quruvchi, nomdor bo’lgan baxtsiz, bu buyuk, toymas qimondonni tanitmoq uchun har qancha sizlasak, arzishga egadir. Ҳaqiqatan, din, vatan va millat fidosi bo’ldi". Madaminbek doimo "Turkiston-Turkiston xalqining yurtidir. Dushmanni yurtimizdan haydaymiz!", — derdi. Bir siz bilan aytganda, "Millatim — jonim mening!" shiori Madaminbek faoliyatining asosiy mohiyati bo’lgan.

"Iz oldiga sovet hokimiyatini ag’darish va Farg’ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qiygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi", -deb tan olinadi isha davrga oid rasmiy hujjatlarning birida.

Madaminbek yigitlari o’rtasida harbiy intizom kuchli edi. Madaminbekchilar bosqinchi va ig’rilarni izlari ushlab jazosini berishardi. Masalan, 1919 yil boshida Toshloqda Isxoq ishboshi va Tojiboy kunjarafurush mayda bosqinchilik

guruhlarini tuzgani uchun Madaminbek yuborgan odamlar tomonidan otib tashlandi.

Madaminbek siymosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar izaro uyg'unlashib ketgan edi, U Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilarning xaqiqiy ma`nodagi doxiysi, tan olingan yilboshchisi edi. Madaminbek vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda iz siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. Bunday boshqaruv usulini yana Farg'ona vodiysida Katta Ergash va Shermuhammadbek, Buxoro respublikasida Ibrohimbek, Mulla Abdulqaxhor va Anvar Posho, Xorazm respublikasida esa faqat Junaidxon kabi sardorlargina joriy etgan edilar.

"U bizning rahbarlik faoliyatimizda yil qiygan xato va kamchiliklarimizdan ustalik bilan foydalanardi. Uning iz boshqaruv apparati, izining tribunali, izining "genshtabi" bo'lgan: u qonunlar chiqargan", —deb e`tirof qiladi Madaminbekka qarshi kurashgan dushmanlaridan biri Gramatovich. Bu fikrni Madaminbekni jang maydonlarida yaxshi bo'lgan qizil komissar M.Polikovskiy ham iz xotiralarida tasdiqlaydi.

1918 yil noyabr oyining boshida Andijon uezdidagi Oyimqishloqda (Қorasuvdan 14 chaqirim shimoli – g'arbda) Farg'ona vodiysi qo'rboshilarining navbatdagi qurultoyi bo'ldi. Қurultoyda istiqlolchilik harakatining rahbarlari sovet hokimiyatiga qarshi kurashning dastlabki yakunlarini chiqardilar, Қurultoyda qo'rboshilar dastalarining izaro hamkorlikda ish olib borishlari zarurligi ta`kidlandi, yaqinlashib qolgan qish mavsumidagi jang harakatlari kelishib olindi. Farg'ona vodiysi hududi harbiy harakatlarni muvofiklashtirish uchun yirik qo'rboshilar o'rtasida quyidagi tarzda taqsimlandi: Andijon uezdida Maxkam Ҳoji, qarorgohi Anguzbak; Ish uezdida Xolxija, qarorgohi Novqat; Namangan uezdida Omon Polvon; Қiqon uezdida Ergash, qarorgohi Damkil atrofida; Skobelev uezdida Madaminbek. Қurultoyda Katta Ergash qo'rboshi irniga istiqlolchilarning Oliy bosh qimondoni qilib Madaminbek saylandi.

Madaminbek 1918 yilning oxiridayoq mustaqil harakat qilishga urinayotgan yirik qo'rboshilarning faoliyatlarini boshqarishga muvaffaq bo'ldi. Shermuhammadbek, Nurmuxammadbek, Xolxija eshon, Mahkam Ҳoji, Raxmonqul, Omon Polvon va qirg'iz mujohidlarining boshlig'i Muxiddinbek singari qo'rboshilarni yagona qimondonlik ostiga birlashtirish undan juda katta kuch —g'ayratni talab qildi. Iz qishlog'i va tumanida "iziga bek" bo'lgan bu kirboshilarning qarshiligi va izboshimchaligini Madaminbek sindirishga erishdi. U Xolxija eshonning shuhratparastligi va kaltabinligiga qarshi ancha kurashdi. Katta Ergash qo'rboshi bilan Madaminbekning munosabatlari ham tez-tez izgarib turardi. Sal yuqorida ta`kidlab itilganidek, ba`zan ular birgalikda harakat qilishsa, goh-gohda murosalari kelishmay izaro tiqnashardilar. Albatta, ushbu nohush xolatlar Turkiston mintaqasida istiqlolchilik harakatining yanada rivojlanishi va avj olishiga halaqit berardi.

Madaminbek qishini safida xalqning barcha tabaqalariga mansub kishilar bor edi. Bu erda qishinning asosini tashkil qo'lgan oddiy yigitlardan tashqari islom ulamolari — eshonlar va mullalar, ziyolilar va jadid munavvarlari, savdogarlar va baqqollar, sobiq chor hukumati va sovet organlarida ishlagan xodimlar, hatto

mahalliy kommunistlar, oq gvardiyachi ofitserlar, turk zobitlarini uchratish mumkin edi. «Madaminbek boylar va mahalliy aholi tomonidan tila ravishda qillab - quvvatlanmoqda», - deb aytgan edi 1918 yil oktabrida Marg'ilon shahrining favqulodda komissari Sugrubov. Madaminbek har qanday aksilinqilobchi va sovetlardan norozi odamni u qaysi millat vakili bo'lganligi va diniy e`tiqodidan qat`i nazar xursandchilik bilan kutib olardi. Қisqa muddat ichida Madaminbek iz atrofiga aqlli maslahatchilarni tipladi va ularning kimagi bilan yaxshi tayyorlangan xodimlarni Farg'ona vodiysining hamma joylariga iz vakillari sifatida yubordi. Madaminbek yuborgan bunday vakillar vodiyning barcha shaharlari va katta qishloqlarida bilib, tub xalqlarni mustabid sovet rejimi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurashga oyoqlantirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov haqqoniy ravishda ta`kidlab itganidek, Madaminbek sovet saltanati davrida adolat va xaqiqat uchun tinmay kurash olib borgan yurtparvar ig'lon, Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining etakchisi edi ("Xalq so'zi", 1998 yil, avgust).

1919 yil 24 yanvarda Madaminbek boshchiligidagi istiqlolchilar dastasi eski Marg'ilon shahriga hujum qildilar. Ming kishidan ortiq madaminbekchilar shaharni bosqinchi qizil armiya askarlaridai ozod qilib, uni ikki kui iz qillarida saqladilar. Madaminbek shahar markazidagi Irdatagi maydonida turib xalqning vakillari bilan maslahatlashdi, ularning arzini tingladi. Madaminbek Marg'ilonda tartib o'rnatib, jinoyatchi va bezori unsurlarni shafqatsiz ravishda, lekin adolatli jazoladi.

Istiqlolchilar qishini butun vodiyda faol jang harakatlarni olib bordilar. 1919 yil 20 fevralda 1.500 kishidan iborat mujohidlar Namangan uezdining eng katta shaharlaridan biri bo'lgan Chustni egalladilar. Skobelevdan qishimcha qizil askar kuchlari etib kelgach, 28 soatlik janglardan keyin istiqlolchilar shaharni tark etdilar.

"Madaminbek turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham xech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch —qudratga ega bilmagan edi", deb isha paytdayoq yozgan edi uning g'oyaviy muxoliflaridan biri sovet harbiy tarixchisi V.Kuvshinov.

Sovet hokimiyati vakillarining butun Turkiston o'lkasida yuritgan shovinistik va mustamlakachilik siyosati, mahalliy axoli manfaatlari bilan xisoblashmay ularning nafsoniyatiga tegishi istiqlolchilik harakatining doimiy ravishda avj olishi hamda uning uzluksiz davom etishiga olib keldi.

Madaminbek tadbirkor lashkarboshi bilishi bilan bir qatorda usta siyosatchi, mohir diplomat ham edi. U Farg'ona vodiysidagi qo'rboshilarni yagona qimondonlik ostiga birlashtirgach, Buxoro amiri Said Olimxon va Xiva xonligiiing amaldagi hukmdori Junaidxon bilan qizil armiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun muzokaralar olib bordi. Afg'oniston va Turkiyaga ham vakillar jinatiddi. Madaminbek Rossiyaning Koshg'ardagi sobiq konsuli Uspenskiy va Buyuk Britaniyaning bosh konsuli P.Eserton orqali jahon sahnasiga chiqishga, Evropadagi rivojlangan millatlar va AҚShdan bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurash olib borish uchun iqtisodiy va harbiy yordam olishga intildi. Madaminbekning bu sa`y-harakatlari xalqaro maydonda sezilarli yutuqqa olib kelmasa ham, lekin Farg'ona

vodiysining izida mustabid sovet rejimiga qarshi kuchlarni birlashtirishda muxim rol’ iynadi.

Madaminbek taktik maqsadlarni kizlab Jalolobod va Ish shaharlarida turgan general K.Monstrov boshliq rus krest’yailar armiyasi bilan muzokaralar itkazib, 1919 yil 2 sentyabrda sovet rejimiga qarshi birgalikda kurashish uchun shartnoma imzoladi. Birlashgan armiyaning Oliy bosh qimondoni qilib Madaminbek saylandi, uning irinbosari K.Monstrov biddi. Қirboshilarga rahbarlik qilish Madaminbekning eng yaqin yordamchisi Soli Maxdumga yuklatildi. Belkin esa shtab boshlig’i lavozimini egalladi. Bu ittifoq bolsheviklar tomonidan ataylab tarqatilgan "Madaminbek ruslarga nisbatan xunrezlik qilmoqda", degan tuhmatomuz gaplarning asossiz ekanligini, Madaminbekning maqsadi bolsheviklar rejimi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi istiqlol kurashi olib borishdan iborat ekanligini isbotladi.

Madaminbek Farg’ona vodiysidagi rus aholisiga bu shartnoma imzo-lanmasdan olti oy avval murojaat qilib, iz armiyasiga qo’shilgan har bir oddiy askarga oyiga ming simdan, ofitserlarga esa ikki ming simdan maosh tilanishi va ularning diniy e`tiqodlariga daxl qilinmasligini e`lon qo’lgan edi. Shuningdek, bu askarlarning oziq - ovqat ta`minoti ham uning zimmasida edi. Madaminbek so’zi bilan ishi bir sarkarda bo’lgan. Bu holat eng avvalo Madaminbekni dunyo kirgan inson ekanligidan, shuningdek, musulmonlarning diniy bag’rikengligi (tolerantligi)dan dalolat beradi.

Ҳech bir qo’rboshi isha paytda izini Madaminbekchalik ruslarga yaqin tutmaganligini ochiq aytish kerak. Katta Ergash qo’rboshi qishinida ruslar, umuman, evropaliklar ko’pchilikni tashkil qilsa ham bu darajada yaqinlik yiq edi. Biroq Madaminbek irisparast bilmagan. U uzoqni kira oladigan dono siyosatchi va mohir diplomat edi. Bek tomonidan evropalik ofitser va askarlarni iz qishiniga chorlashning jiddiy asoslari bo’lgan. Ular bilan yonma-yon jang qilish iz yigitlari uchun maktab bilishini, kelgusida mustaqil Turkiston musulmon armiyasini tashkil etishda muhim rol iynashini Madaminbekchalik chuqur tushungan boshqa birorta sarkarda yiq edi. Xuddi shunday holat sal keyinroq Buxoro va Xorazm respublikalarida milliy qishinni tashkil qilish va shakllantirish jarayonida juda sezildi. Afsuski, XX asrning 20 - yillarda butun Turkiston mintaqasida zamonaviy darajada milliy qishinni tashkillashtirish istiqlolchilarning eng muxim muammosi bilib qolaverdi.

Bu paytda Farg’ona vodiysida sovet rejimi amadda faqat yirik shaharlardagina saqlanib qolib, vodiy qishloqlari asosan Madaminbek va unga qarashli qo’rboshilar qilida edi. Madaminbek tinch aholini harbiy harakatlar paytida shaharlarni tark etishga chaqirdi. Bu insonparvar sarkardaning ortiqcha qon tikilishiga yil qiymaslik uchun urinishi edi.

Farg’ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919 yil yozining oxiri va kuzida izining eng yuqori chiqqisiga chiqdi. Bu eng avvalo Madaminbekning nomi bilan chambarchas bog’liqdir. Madaminbek boshchiligidagi qishinlar safiga Jalolobodda turgan rus krest’yanlar armiyasining qo’shilishi vodiyda sovet hokimiyatini ag’darish uchun real kuch edi. Sentyabrning dastlabki kunlarida Madaminbek

lashkarlari Jalolobod shahrini egalladi. Қurshob qasabasi yonidagi janglarda sovet armiyasi qismlari mag'lubiyatga uchrab, Ish shahriga chekindi.

Ish - Farg'onaning hayot - mamotini belgilaydigan shahar bilib, harbiy - strategik jihatdan juda qulay joyda joylashgan edi. Ish Farg'ona vodiysini, umuman, Turkiston respublikasini Xitoy, Afg'oniston, bu tomoni - Buxoro bilan bog'laydigan yillarning ustida edi. Ish shahri "jahon tomi" - Pomir riparasida bilib, undan G'ulja va Ergashtomdagi chegara punktlariga olib boradigan yil itardi. 1919 yil 8 sentyabrda bir yarim kecha - kunduzlik janglardan keyin shahar garnizoni taslim bo'ldi, qamoqxonada yotgan mahbuslar istiqlolchilar tomonidan ozod qilindi. Madaminbek boshchiligidagi armiya tantana bilan shaharga kirib keldi. Ish shahrida 9 sentyabrda bo'lgan katta mitingda Madaminbek yorqin nutq sizladi. Mitingda qatnashganlarning guvohlik berishicha, Madaminbek sizlagan nutqda istiqlolchilik harakatining siyosiy mohiyati, istiqlolchilarning maqsadlari ochib berildi.

Madaminbek qishinlari 13 sentyabrda eski Marg'ilon shahrini egalladilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar - Andijonni qamal qilishga kirishdilar.

Madaminbek boshlagan jang harakatlarini muvaffaqiyatli ravishda oxiriga etkazish va safdoshlari bilan maslaxatlashish uchun 1919 yil 15 sentyabrda eski Marg'ilon shahrida qurultoy chaqirdi. Қurultoyda Farg'ona vodiysidagi qo'rboshilar bilan bir qatorda krest'yanlar armiyasi rahbarlari ham qatnashdilar. Қurultoyda Farg'ona vodiysida hokimiyatni qo'lga olish haqidagi Madaminbek rejasi ma`qullandi hamda Turkiston xalqiga murojaatnoma qabul qilindi. Madaminbekning harbiy shtabida bosmadan chiqarilgan va istiqlolchilar tomonidan butun vodiy aholisi o'rtasida tarqatilgan turli xitobnoma, da`vatnoma va varaqalarda "Farg'onada Ta`sis majlisi chaqirilishi" va "Madaminbek qishinlari safida kamida 25.000 kishi borligi" ta`kidlangan edi.

Nafaqat mazlum Farg'onaning, balki butun Turkistonning najot izlagan kizlari iz milliy qahramoni Madaminbekka qaratilgandi. 1919 yil 10 sentyabrda boshlangan Andijon qamali bu paytda kelib davom etayotgan edi. Isha paytdagi jang qatnashchilarining xotiralariga ishonilsa, Andijonga istiqlolchilarning qariyb 20.000 kishilik armiyasi hujum qo'lgan va shahar chor atrofdan qurshab olingandi. Turkiston hukumati butun respublikada aholi soni biyicha uchinchi irinda turgan Andijonni jon - jahdi bilan mudofaa etishga kirishdi, chunki Andijonning qildan ketishi aslida Farg'ona vodiysida sovet xokimiyatining kuni bitdi, degan siz edi. Shuning uchun ham bolsheviklar hukumati butun harbiy kuchlarini Andijonga qarab tashladilar. Қiqon va Toshkentdagi qizil askarlardan tashqari Aktyubinsk frontidan Қozon polki chaqirib olinib, ular 21 sentyabrda Andijonga tashlandi. Madaminbek askarlari shiddatli hujumlar natijasida qattiq, janglardan sing 22 oktabrda eski Andijonni egalladilar. Қizil askarlarning holi tang bilayotganini kirgach, bolsheviklar krest'yanlar armiyasi orasiga iz josuslarini yuborib, ularni istiqlolchilardan ajralishga da`vat etishdi. "Қizil ruslar"ning makriga uchgan "oq ruslar" 24 sentyabrga itar kechasi Andijon atrofidagi istehkomlarini tashlab, izlarining Ivanovo va Mixaylovskiydagi qasabalariga jinab ketdilar. Xiyonat natijasida hosil bo'lgan front chizig'idagi ushbu bishliqdan qizil askarlar ustalik

bilan foydalanishdi va istiqlolchilar qamalini yorib o'tib, 24 sentyabrda Andijon shahriga bostirib kirdilar. Madaminbek shahar atrofidan chekinishga majbur bo'ldi, bu jangda u ilganlar va yarador bo'lganlar bilan birga 1000 yigitidan ajraldi, 172 istiqlolchi esa asir olindi. Madaminbek qishini bilan Ishga, singra Jalolobodga chekindi. Krest'yanlar armiyasining hal qiluvchi pallada ikkiyuzlamachilik qo'lganligi istiqlolchilarga juda qimmatga tushdi. Қizil askarlar Ish va Jalolobodni bosib olgach, Madaminbek qishinlari bilan Pomir va Oloy tog'lariga chiqib ketdi.

Bir oy davomida butun Turkistonni larzaga keltirgan Madaminbek boshchiligidagi istiqlolchilar qishinining hujumi pirovardida shunday yakun topdi. Biroq ilk mag'lubiyat alamini tatigan Madaminbekning irodasi sinmadi. Pomirning G'ulja istexkomida makon topgan Madaminbek armiyani yangidan tashkil qilish, yigitlar safini ko'paytirish, qishinga yangi qabul qilingan istiqlolchilarga harbiy ta`lim berish, xorijiy davlatlar bilan o'rnatilgan aloqalarni mustahkamlash va ular bilan harbiy hamkorlik qilish yillarini qidirish bilan shug'ullandi.

Madaminbek sanoqli kunlar ichida iz qishini ichidagi jangovarlik ruhini qayta tiklay oldi. U izining katta qishini bilan 1919 yil 10 oktabrlarda vodiyga qaytib, Namangan uezdidagi Chortoq qishlog'ida iz shtabini joylashtirdi. Chortoqda zudlik bilan kurilgan harbiy korxonada iq-dori va snaryad ishlab chiqarishga kirishildi. Farg'ona vodiysida, keyinchalik Buxoroda qurilgan bunday ustaxonalar va zavodlarda avstriyalik va boshqa xorijiy harbiy mutaxassislarning kimagida qurol - yarog'lar: miltiqlar, iq-dori va snaryadlar yasalgan, tiplar va zambaraklar quyilgan.

Madaminbek qarorgohiga ziyolilar: jadid munavvarlari va islom ulamolari yig'ilib, uning ko'rsatmasi bilan Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida umumxalq qizg'oloni ko'tarish g'oyasini targ'ib qilish uchun qishloqlarga jinab ketdilar. Istiqlolchilik harakatining g'oyaviy raxnamolari va mafkurachilari xisoblangan bunday shaxslar Turkistonda milliy g'oya uchun kurashning yirik namoyandalari edi.

Farg'ona fronti qishinlari qimondoni Sokolov Turkiston inqilobiy harbiy kengashi (Revvoensovet) nomiga 1919 yil oktabrda yillagan ma`lumotida Farg'ona viloyatida sovet xokimiyati xavf ostida qolayotganligini ochiq tan olib, kuyi dagicha yozgan edi: «Sovet xokimiyati faqat shaharlarda faoliyat ko'rsatmoqda, uezdlar qaroqchilar (istiqlolchilar) tomonidan egallab olindi. Қaroqchilar (istiqlolchilar) guruhlari hamma yirik qishloqlarda irnashgan: xususan, Andijon uezdining shimoli - g'arbiy qismi va Marg'ilon uezdining shimoli - sharqiy qismida; Ish uezdining shimoli - sharqiy qismida katta guruhlar Pomir rayonini muxofaza qilib, Ish shahriga tahdid solmoqda. Faqat bu erdagi qurollangan qaroqchilarning (istiqlolchilarning) miqdori 12.000 kishidan ortib ketdi, alohida guruhlarning har birida 1000 tacha yigitlar bor».

1919 yil 22 oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida, hozirgi Қiriziston Respublikasining Xitoy bilan chegarasining naq izida, istiqlolchilik harakati yilboshchilari va krest'yanlar armiyasi rahbarlarining izaro anjumani bo'ldi, Bu yirik anjuman (qurultoy)da Farg'ona vodiysidagi tinch aholi vakillari, shuningdek, Rossiyaning Qoshg'ar (Xitoy)dagi sobiq konsuli Uspenskiy ham ishtirok qildi. Anjumanda vodiy aholisi turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilayotgan Farg'ona harbiy muxolifati tomonidan Madaminbek boshchiligida

Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Ҳukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bilib, 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bilishi bilan birga Oliy bosh qimondon qilib ham tayinlandi. Rus krest'yanlar armiyasining rahbari Monstrov uning irinbosari, general-mayor Muxanov harbiy vazir qilib belgilandi. Ҳukumat tarkibiga yana Ҳakim Azizxonov (moliya vaziri), advokat Nansberg (ichki ishlar va adliya vaziri), Plotnikov, polkovnik Fenin, kapitan Sulaymoi Kuchukov va boshqalar kiritildi. Madaminbek ushbu mashvaratda Turkiston xalqi uchun demokratik ruxdagi mustaqil musulmon davlatini tuzish mujohidlarning eng oliy maqsadi ekanligini alohida ta`kidlaydi. Chunki Madaminbek demokratik ruxdagi davlat qurish tarafdori bilib, u boshqa qo'rboshilardan tubdan ajralib turardi.

Ma`lumki, Madaminbek Farg'onada muxtoriyat tashkil qilish va Ta`sis majlisini chaqirish uchun kurashgan edi. U hayotga real qaraganidan, dastavval Farg'ona vodiysining izida hokimiyatni qo'lga olib, bu erda muxtoriyat o'rnatmoqchi edi. Turkiston Muxtoriyati hukumati aynan shunday talablar bilan iz davrida chiqqan bilib, bu g'oyani Madaminbek amalga oshirayotgan edi. U vodiyda muxtoriyat tilik, o'rnatilgach, Turkistonning boshqa hududlaridan ham qizil armiyani quvib yubormoqchi, singra Ta`sis majlisiga butun xokimiyatni topshirib, aynan demokratik yil—saylovlar orqali Turkistonning tiliq mustaqilligiga erishmoqchi bo'lgan. Madaminbek ana shunday yorqin g'oyalar yilida jang qildi, mustaqil Turkistoi uchun kurashdi.

Madaminbekning xalqaro maydonga chiqishdek niyatlari ma`lum ma`noda iz samarasini bergandek bo'ldi. YUqorida aytilgan anjumandan sing bir hafta itar-itmas hozirgi Farg'ona viloyati YOzyovon tumani hududidagi Қoratepa qishlog'ida joylashgan Madaminbekning qarorgohiga Afg'onistondan rasmiy delegatsiya tashrif buyurdi. Besh kishidan iborat afg'on delegatsiyasi Madaminbekning Marg'ilon shahridagi qaynotasining uyida (marhum Abdurazzoq zakinchi Siddiqov xonadonida) ham bilishdi. Қoratepa qishlog'ida boshlangan muzokaralar Marg'ilonda davom ettirildi. Afg'oniston delegatsiyasiga bu erda Қorategin orqali Toshkentdan kelgan yana bitta afg'on ham qo'shildi. Biroq Madaminbekning keyinchalik ko'rsatishicha, Toshkentdan kelgan afg'on sovet hukumatining josusi va chekistlarning ayg'oqchisi bilib chiqdi.

Қizil armiya agenturasi maxfiy ma`lumotlariga qaraganda, Madaminbekka yordam uchun Pomir tog'lari osha 10.000 kishilik yaxshi qurollangan afg'on qishinlari Farg'onaga keladigan bo'ldi. Biroq, agenturaning bu maxfiy ma`lumotlari isha davrda Afg'onistonda yuz bergan tarixiy vaziyat va siyosiy voqealarni chuqur irganmasdan turib, tayyorlangan edi. Afg'oniston amiri Omonullaxon 1919 yil 28 fevralda mamlakatni mustaqil deb e`lon qo'lgan va sovet Rossiyasi bilan yaxshi qishnichilik munosabatlarini o'rnatgan edi. Madaminbek Afg'oniston amiri Omonullaxonga 1919 yil may oyidayok, izining rasmiy vakillarini yuborib, Afg'onistonni inglizlardan mustaqil bo'lganligi bilan tabriklagan va Rossiyaga qarshi kurashda iz musulmon birodarlaridan yordam siragan edi. Biroq bir arxiv hujjatida keltirilishicha, Madaminbek Qoshg'ar konsuli orqali 18 yashik patrondan iborat harbiy yordamni olgan, xolos. Keyinchalik Madaminbekka oz miqdorda qurol - yarog' jinatilgan.

Afg'oniston amiri Omonullaxon tomonidan 1919 yil oktabrda yuborilgan javob delegatsiyasi (albatta, sovet Rossiyasining Turkistondagi rasmiy rahbarlari roziligi bilan) istiqlolchilarni iz manfaatlariga biysundirmoqchi bo'lganidan, ya`ni harbiy yordam beg'araz ko'rsatilmasligidan voqif bo'lgan Madaminbek ular bilan muzokaralarni to'xtatdi. Shunday bilishiga qaramasdan, keyinchalik ham Madaminbek qarorgohida Afg'oniston, eron, Ozarboyjon hukumatlarining rasmiy vakillari, Buxoro amirligidan kelgan 5 nafar doimiy maslahatchi, Xiva xonligidan Junaidxon yuborgan kishilar, rus oq gvardiyachi hukumatlarining vakillari bor edi. Ba`zi manbalarda Turkiyadan ham rasmiy kishilar kelganligi ko'rsatiladi.

Madaminbek boshchiligida tashkil qilingan Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumatining xalqaro aloqalari tobora kengayib bordi. Buyuk Britaniyaning Koshg'ardagi bosh konsuli P.Esertonga Muxanovning ig'li maxsus vakil qilib yuborilib, undan harbiy yordam siraldi. Biroq, Angliyaning D.Lloyd Jorj boshliq liberallar hukumati siyosatdonlari va davlat rahbarlari Madaminbek hukumati da`vatini e`tiborsiz qoldirishdi. Lekin diqqatga sazovor x;olat shundaki, Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumatining dovrug'i ummonlar osha tumanli Britan sohillariga baribir etib bordi. Ҳindistonning Ollohobod shahrida ingliz tilida chiqadigan "Pioner" gazetasining yozishicha, 1919 yil dekabr oyi o'rtalarida Buyuk Britaniya parlamentida Turkistonda paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatni rasmiy jihatdan tan olish, u erga xalqaro komissiya yuborish masalasi ko'tarilgan. Tadqiqotchi A.Ibodinovning yozishicha, parlament uzoq tortishuvlardan sing bu taklifni rad etgan.

Shuni unutmaslik lozimki, Markaziy Turkiston, Janubiy Turkiston (Shimoliy Afg'oniston), Sharqiy Turkiston (Ғarbiy Xitoy), Shimoliy Turkiston (Tatariston va Boshqirdiston) — tarixan tarkib topgan Turkiston mintaqasida 1917—1920 yillarda tug'ilgan mustaqil Turkiston davlati yoxud Markaziy Osiyo xalqlari federatsiyasini tuzish g'oyasi Buyuk Britaniya tomoniga xam yoqmas edi. Mustamlakachi mamlakatlarning eng klassigi bo'lgan Angliya imperiyasi bu sohada chor va bol'shevistik Rossiya imperiyasi bilan zimdan xamfikr edi. Aynan shu holat Buyuk Britaniyaning Turkiston mintaqasidagi siyosatini oldindan belgilab bergan muxim omil bo'ldi.

Madaminbek tomonidan mohirona diplomatik siyosat yuritilganligi natijasida xukumat tuzilganligi vodiydagi vaziyatni uning foydasiga izgartirib yubordi. YAgona, kuchli va malakali zamonaviy musulmon armiyasi tuzish ishlari qizo'tib yuborildi. 1919 yilning kech kuziga kelib, "Madaminbek qil ostida 30 mingga yaqin yigit" bosqinchi qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordilar. Bu paytda "Shermuhammadbekda 20.000 yigit", "Katta Ergash qo'rboshida 8.000 yigit bo'lgan". Aynan ushbu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar xarakatlarni yinaltirib turdilar.

1919 yil oktabrning singgi kunlarida Farg'ona vodiysidagi barcha yirik qo'rboshilar Andijon uezdidagi Oyimqishloqda tiplandilar. Istiqlolchilik harakati tarixidagi ushbu eng yirik kurultoylarning birida, arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, Farg'ona vodiysida harakat qilayotgan 150 tacha qo'rboshilar dastalari tirtta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Katta Ergash, Shermuhammadbek, Xolxija eshon qimondonligi ostida birlashtirildi. Madaminbek qishinlari Jaloloboddan

g’arb tomonda, Katta Ergash Қiqondan shimoli — sharq tomonda, Shermuhammadbek Marg’ilondan shimoli — sharq tomonda, Xolxija eshon esa Ishdan g’arb tomonda faoliyat ko’rsatishlari kelishib olindi. Қurultoyda istiqlolchilar qishinining Oliy bosh qimondoni qilib yana qaytadan Madaminbek saylandi.

Bir yuz ellikta kirboshilarning har biri qil ostida kamida 400-450 ta yigit bo’lgan deb taxmin qilinganda ham, Farg’ona vodiysidagi Madaminbek qishini bu paytga kelib 60.000 — 70.000 kishidan iborat edi. 1919 yil 30 noyabrda Toshkentdan Turkiston fronti shtabi joylashgan Samaraga yillangan telegrammada aytilishicha, "Bosh qimondon Madaminbekning izi Bitaqora — Bozorqirg’on atroflarida joylashgan. Unga nisbatan mustaqil qo’rboshilaridan Xolxija eshon Ish uezdida, Kirshermat (Shermuhammadbek) va Ғiyos Xija Skobelevdan janub tomonda faoliyat ko’rsatmoqdalar. YAngiqirg’on tumanida (Қiqondan 20 chaqirim sharqda) Ergash qo’rboshi iz yigitlari bilan turibdi... Bulardan tashqari Madaminbekning shaxsiy qimondonligi ostida quyidagi yirik qo’rboshilar harakat qilmoqda: Mahkam Ҳoji (Madaminbekning yordamchisi), Soli Maxdum, Shermat, Omon Polvon, Mulla Masaid, Mulla Karim, Aliyor, Parpiboy, Ғulom, Akbaralh, Olim, Nurmat, Jira, Otamurod".

YUqorida aytib itilgan 150 dan ortiq qo’rboshilar dastalarining har birida sobiq chor armiyasi ofitserlari va turk zobitlaridan tashkil topgan harbiy instruktor lavozimi joriy qilindi. Keyinchalik ularning irnini Validiy tomoniday yuborilgan ko’plab boshqird ofitserlari egalladi. Қirboshilarni maxsus harbiy va g’oyaviy tayyorgarlikdan itkazish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Bu kurslarga taklif qilingan jadid ziyolilari va islom ulamolari ularga milljy istihol g’oyalaridan saboq berishdi. Shuningdsk, istiqlolqchilar qishini orasidan mustaqillik g’oyasiga sadoqatli, mard va jasur yigitlar tanlab olinib, ular qo’rboshilarni tayyorlayu biyicha maxsus kurslarda iqitildi. Bilg’usi qo’rboshilar bunday maxsus kurslarda tajribali qimondonlardan sharq harbiy san`ati: strategiya va taktikasini irgandilar. Isha davrdagi voqealarning bevosita shoxidi, bilgusi marshal va Sharqiy Turkiston islom jumxuriyatining 1-prezidenti Alixontira Sog’uniy (1885-1976) ning keyinchalik yozgan xotiralarida keltirilishicha, bu kurslarda harbiy mashg’ulotlar "Temur tuzuklari" asari asosida irgatilgan.

Farg’ona muvaqqat muxtoriyat hukumati xuzurida xorijiy mamlakatlardan qurol-yarog’ sotib olish bilai shug’ullanadigan maxsus idora tashkil qilindi. Madaminbekning ko’rsatmasi bilan xukumat mablag’larining katta qismi bu idoraga berildi. Ular nafaqat chet eldan, balxi maxsus kishilar orqali qizil armiya komandirlari qilidan mimay pul evaziga turug’i xil qurol-yarog’larni sotib olishdi.

Shuningdek, hukumatning maqsad va vazifalarini xalqka tushuntirish bilan shug’ullanuvchi g’oyaviy uyushma ham tashkil etildi. Kundalik gazetalar va axborotnomalar chiqarish imkoniyati cheklangani uchun bu uyushma asosan varaqalar, chaqiriqlar va bayonotlar nashr qilish hamda ularni qishin va xalq o’rtasida tarqatish bilan mashg’ul edi. Faqatgina 1919 yilning kuzi va qishida uyushma yuzdan ortiq ana shunday varaqalar, murojaatnoma va bayonotlar chiqardi.

Sovet rejimi va bolsheviklar istiqlolchilarga qarshi kurashning barcha vositalarini ishga solishdi. Turkiston fronti, Turkkomissiya va Turkbyuro, keyinchalik RKP(b) MK Irta Osiyo byurosi kabi harbiy tashkilotlar va komissiyalar tuzildi. Rossiya markazidan doimiy ravishda Turkiston mintaqasiga yangi-yangi qizil askar qismlari keltirib turildi. Bu xolat, xususan, Orenburg tiqini tugatilgach avj olib ketdi. Aynan Farg’ona vodiysiga tobora qishimcha kuchlarning tashlanishi natijasida 1920 yil yanvar oyining o’rtalariga kelib, jangovar tashabbus qizil armiya qiliga itdi. Krest’yanlar armiyasi qizil armiya tomonxa butunlay o’tib ketdi. Katta Ergash qo’rboshining qishini ma.g’lubiyatga uchragach, Shermuhammadbek asosiy kuchlarni olib, Oloy vohasiga chekindi.

Ҳarbiy tashabbus qildan ketganligini, har qadamda xiyonat ta`qib qilayotganini kirgan Madaminbek iz yigitlari xayotini saqlab qolish maqsadida Faronadagi sovet qishinlari qimondonligiga yarash muzokaralari boshlashni taklif qildi. Oqibatda istiqlolchilar qishinining Bosh qimondoni Madaminbek bilan 2 — Turkiston iqchi diviziyasining boshlig’i N.Veryovkin-Roxal’skiy o’rtasida 1920 yil 6 martda Skobelev (hozirgi Farg’ona) shahrida yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet xokimiyati tomoniga uning inlab qo’rboshilari va 3.500 ta yigiti ham itgan edi.

Lekin Madaminbekning diplomatik tadbirlari bu gal samarasiz tugadi. Sovet qimondonligi tomonidan muzokaralar itkazish uchun qo’rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziligi bilan Xolxija eshon tomonidan 1920 yil 14 martda qirg’izlarning Қorovul qishlog’i atrofida xiyonatkorona ildirtirildi. Sovet qimondonligi Madaminbekning ilimi bilan Turkiston Muxtoriyati va milliy mafkura uchun kurash ham iladi, deb xom xayolga borishgan edi. Madaminbekni ildirgan kimsa Xolxija eshon qil ostidagi Soqi jallod bilsada, aslida uning xaqiqiy qotili bolshevikcha rejim rahbarlari edi. Chunki Madaminbek yiq qilingach, ertasigayoq istiqlolchilardan ayovsiz ich olishga kirishildi.

Madaminbek bilimdonligi va tashabbuskorligi, izining demokratik qarashlari va harbiy salohiyati bilan boshqa qo’rboshilardan ancha ustun turgan. U xalq orasida kuchli mehr-muxabbat va katta obro’ga sazovor edi. Tabiiyki, bunday milliy qahramon va milliy mafkura tarafdori bo’lgan, milliy g’oya uchun otashin kurashgan Madaminbek singari yilboshchi sovet rejimi uchun juda xavfli edi. Shu sababdan ham Madaminbekning halok bilishidan birinchi navbatda ular manfaatdor edi. Adolat yuzasidan aytganda, Madaminbekning ayrim ishlari ba`zi izbilarmon qo’rboshilar va ulamolarga ham yoqmas edi. Istiqlolchilik xarakatidagi bunday ziddiyatli holatlar Madaminbek qismatining fojiali tugashida iz ta`sirini itkazmasdan qolmadi.

Madaminbek fojiali ravishda halok bilsa ham, uning porloq nomi Turkiston istiqlolchilari o’rtasida tillarda doston bilishda davom etdi. Madaminbek haqida turli qishiqlar tiqilib, istiqlolchilar tomonidan kuylandi. Arxivdagi maxfiy hujjatlarning guvohlik berishicha, ana shunday qishiqlardan birini Munavvar Қori tinglab, unga "mazmuni juda chiroyli" deb, yuqori baho beradi va qishiq matniga ayrim tuzatishlar kiritadi. Қishiq sayqal topgach, u butun Farg’ona istiqlolchilari o’rtasida juda mashxur bilib ketadi.

Madaminbekning qabri hozirgi Қirg'iziston Respublikasi hududida, Oloy vohasidagi Shig'ay qishlog'idadir. Bu joy XX asrning 20-yillaridan boshlab izbek, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlarning ziyoratgoh maskaniga aylangan. Қabr ustida o'rnatilgan marmartoshda "Turing begim gunohlarni yuvaylik, bosqinchini Ona yurtdan quvaylik" degan she`riy bitik iyib yozilgan. She`riy matn ostida qilichning rasmi aks ettirilgan.

Madaminbek yurt ozodligi va istiqloli uchun kurashda qurbon bo'ldi. U iz ilimi bilan bugungi mustaqilligimizga poydevor qiydi, hozirgi istiqlol kunlarimizni yaqinlashtirdi.

Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik haraqatining yil boshchilari o'rtasida shubhasiz Shermuhammadbek (1893-1970) alohida ajralib turadi.

Shermuhammadbek (arxiv hujjatlari va sovet adabiyotlarida Kirshermat yoki Shermat qo'rboshi, uning ing kiziga iq tekkan) Farg'ona viloyatining hozirgi Toshloq tumanida Garbuva (Garbobo azizlar) qishlog'ida beklar avlodidan bo'lgan Қishoqvoy hoji xonadonida 1893 yilda tug'ildi. Қishoqvoi hojining ota avlodlari Қiqon xonlari huzurida vazirlik, beklik qilishgan bilsa, onalari Oydin og'ocha Koshg'ardan kelin bilib tushgan edi.

Shermuhammadbekning Toshmuhammadbek, Tojmuhammadbek, Rizimuham-madbek degan akalari, Nurmuxammadbek nomli ukasi va Sarviniso ismli singlisi bo'lgan. Uning onasi Tipaxon aya Қishoqvoy hojining kenja xotini edi. Shermuhammadbek oi-lada tirtinchi farzand bilib, dastlabki ta`limni qishlog'ida, keyin Marg'ilonda olgan. Shermuhammadbek yoshligidan ilmga chanqoq, ayni paytda jangari yigit bo'lgan. U ko'p iqigan, shu-ning uchun ajdodlarimizga hurmat va mustamlakachilarga nafrat ruxida tarbiyalangan.

Shermuxammadbek betahorat ot minmaganlar, yasanib kiyinmaganlar, kamgap va adolatpesha shaxs edilar, deb xotirlaydi Farg'onadagi qariyalar.

Axmad Zakiy Validiy Tig'onning keyinchallk "Xotiralar" kitobida yozishicha, Shermuhammadbek 1916 yilda chor Rossiyasi tomonidan mardikorlikka olingan va urush chizig'ida ishlash uchun safarbar qilingan kishilar qatorida Pol'sha frontiga tashlangan.

Shermuhammadbek milliy istiqlol uchun kurashning ilk bosqichidan boshlab jang maydoniga kirgan. U Katta Ergash va Madaminbekning iripbosarlari sifatida istiqlolchilarning tan olingan yirik lashkarboshisi edi. U khurash maydoniga kirgan ilk kunlardan boshlab "Turkiston - turkistonlik-larning yurtidir, unga boshqa hech kimning egalik qilishga haqqi yiq!" degan shiorni o'rtaga tashlagavd. Uning asosii maqsadi Turkistonda islom jumhuriyatini tashkil qilish bo'lgan.

Shermuhammadbek haqida Shaxobiddin YAssaaviy "Turkiston achchiq haqiqatlari" kitobida quydagicha yozgai edi: "Shermuhhammadbek qo'rboshi va katta qimondon, Girva qishloq — Mar g'ilondan. Bu qahramon — buyuk qimondon. Ruslarga qirg'in berguvchi botir edi. Ayni jihod qilib yurgash zamonda Turkiston musulmonlari birinchi va ikkinchi Buyuk qurultoy majlislarini 36 modda ila Umurdavlat ta`sisni (tarixiy vasiqa) unvonila vujudga keltirgan Bosh qimondon Shermuhammadbek..., ammo... xoin Yildosh Oxunboboev shaytonlik va firib iyinida unutilmaydirgan buyuk bir xato qildi".

Shermuhammadbekning siyosiy qiyofasi muxoliflar tomonidan u qurolni hali tashlamagan paytdayoq quyidagicha chizilgan edi: "Kirshermat millati sart (izbek)bilib, barcha qo'rboshilarning eng g'ayratli va qat`iyatlisi hisoblanadi. Jangda juda jasur, qil ostidagilarga nisbatan talabchan va ruslarga shafqatsiz. U axoli o'rtasida juda katta obro' —e`tibor va shuxratga sazovordir".

Shermuhammadbek faoliyatiga uning ashaddiy g'animlari tomonidan berilgan bu baho to'g'ri ekanligini alohida ta` kidlab itmoq lozim.

1920 yil 3 mayda Farg'ona vodiysidagi butui qo'rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanidagi Ғoyibota (Ғaribota) qishlog'ida izlarining navbatdagi qurultoylariga tiplandilar. Bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurash bayrog'ini vodiyda Madamipbek irniga endi Shsrmuxammadbek ko'tardi. Қurultoyda Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati yoxud Turkiston Muvaqqat hukumati tuziddi. Shermuhammadbek hukumat raisi bilishi bilan bir qatorda vodiydagi butun istiqlolchilar qishinining Oliy bosh qimondoni qilib xam saylandi.

Turkiston Muvaqqat hukumati Farg'ona vodiysidagi ozodlik kurashida muayyan darajada xizmat qila oldi. Validiyga tayanib Boymirza Xayitning yozishicha, hukumat tarkibiga quyidagi 6 kishi kiritilgan: "Shermuhammadbek — xukumat raisi va Oliy bosh qimondon; Mullajon Қori — xavfsizlik noziri; Akbarjon eshon —Shayxulislom; Abdusalom Қori — xukumatning bosh kotibi; Nazirjon — moliya noziri; Mulla Ҳoji Niyoz —maxsus ishlar noziri".

Bundan tashqari, 14 kishidan iborat harbiy idora mahkamasi tuzildi. U Bosh qimondon Shermuhammadbek, turk zobitlari Ismoil Ҳaqqi va YOqubbek, shuningdek, Aliyor qo'rboshi, YUsuf Polvon, Mulla Bozorboy, Pilat, Asqar va Nurmuhammadbeklardan iborat bo'lgan. Bu maxkama iz mashvaratlarida istiqlolchilik harakatining keyingi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni kirib chiqardi.

Mulla Umar Ҳoji, Jamol Қozi, Abdulaziz Қori va Abdusalomlardan iborat qozixona — mustaqil sud idorasi maxkamasi ham faoliyat ko'rsatgan. Idora majlisi, ya`ni ma`muriy kengash tarkibi Abdulboqi boyvachcha (rais), Mufti Muso Қozi, Abdulqayum, Mulla Ғoyibnazar, Mulla Yildosh Oxunlardan iborat bo'lgan. Bundan tashqari 88 kishilik parlament — Shiro ham tashkil qilingan.

Shermuhammadbek tomonidan bolsheviklar changalidan ozod qilingan joylarda ellikboshilik, yuzboshilik, mingboshilik lavozimlari qaytadan tiklandi. Axolining qilidan soliqlarni ellikboshilar yig'ib, mingboshilar orqali qo'rboshilarga etkazishgan. Қirboshilar esa bu tilovlarni moliya noziri orqali xukumat xazinasiga topshirganlar. Kip irinlarda badavlat kishilar hisoblangan yirik mulkdorlar: boylar, savdogarlar va ulamolarga qishimcha soliqlar ham solingan. Ushbu tilovlar sovet rejimi xalqdan olayotgan soliqlar va tushumlardan bir necha marta kam bo'lgan. Shermuhammadbek hukumati tomonidan zaruriy ehtiyojlar hamda qurol—yarog' sotib olish uchun kerakli bo'lgan miqdordagi mablag'gina aholi qilidan tiplangan, xolos. Қirboshilar va yigitlarining oziq —ovqat ta`minoti esa ular joylashgan qishloq axli zimmasida edi.

Shermuhammadbek qishinidagi yigitlarning salomatligiga marg'ilonlik Mirzajon va oltiariqlik Ergash tabib boshchiligidagi xalq tabiblari javobgar

bo'lganlar. Zambarak va miltiqlar yasash, iq —dorilar ishlab chiqarish xamda qurol — yarog'larni tuzatish ishiga marg'ilonlik miltiqsiz usta Ahrorxija eshon va shahrixonlik Sulaymon eshon, shuningdek, Germaniyadan kelgan nemis mutaxassislari rahbarlik qildilar. Yigitlarning bish vaqtlarida kingilli xordiq chiqarishlari uchun 12 kishidan iborat musiqachilar dastasi iz san`atlarini namoyish qilib turganlar. Ba`zi manbalarda yozilishicha, mashhur hofiz Muxiddin Қori YOqubov va vodiy qiziqchilarining sardori YUsufjon qiziq Shakarjonov dastavval istiqlolchilar safida bitningan. Shuningdek, "ikki yuzdan ortiq yigit otlarni parvarish qilish bilan maxsus shug'ullanganlar".

Shermuhammadbek qishinida janglarda chiniqqan saralangan yigitlardan iborat alohida guruh bo'lgan, Bu gurux jangchilari qishindagi boshqa askarlardan farqli ravishda qizil chizik, qoplangai qora shimlar va evropacha bichimda tiko'lgan turli rangdagi kiylaklar kiyib olishgan. Bu kiylaklarda islom ramzi sanalgan yarim oy shakli va yudduzlar tasviri tushirilgan edi. Ҳarbiy kiyim — kechaklarni tikish bir guruh mohir chevarlar zimmasida edi. Yigitlar boshida qizil rangdagi dippilar va tatarcha takiyalar bo'lgan. Otda yurish qulay bilishi uchun ular tizzagacha kalta qilib qirqo'lgan yaktaklar hamda oyoqlariga ruscha rusumdagi etiklar kiyishgan. Yigitlarning qiltig'i aralash kikragidan itkazilgan charm patrontoshda iq —dorilar saqlash uchun maxsus irinlar bo'lgan.

Shermuhammadbek ko'targan erk va istiqlolyaing yashil bayrog'i ostida Farg'ona vodiysidagi butun qo'rboshilar tiplandi. Madaminbek bilan birga yoki undan oldinma — keyin sovet hokimiyatiga taslim bo'lgan qo'rboshilarning aksariyati va ularning yigitlari ham Shermuhammadbek qishinlari safiga kelib qo'shildilar. Bol'shevik maddohlardan birining e`tiroficha, ular uchun "Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bilsa, Shermuhammadbek, shubhasiz eng xavflisi edi".

Turkiston MIK raisi Inomjon Xidiralievning sal keyinroq yozishicha, "1920 yil sentyabrda bosmachilarning soni 70.000 kishiga etdi va kuchli vahima uyg'otdi".

Turkiston - turk mustaqil islom jumzhuriyatining keyinchalik Muvahqat Konstitutsiyasi (Asosiy Қonuni) qabul qilindi. Bu Konstitutsiya Turkistop Milliy Birligi tashkilotining tashabbusi bilan 1922 yil 15 - 20 aprelda Samarqand shahrida yarim yashirin holatda itgan Turkiston musulmonlarining 2 — qurultoyida qabul qilindi. Unda Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi eng nufuzli qo'rboshilar 10 tadan yigitlari bilan, shuningdek, Buxoro va Xorazm respublikalarining ko'plab qo'rboshilari, Zakaspiy va Oqmila viloyatlaridan ayrim vakillar ishtirok etdilar.

Tarixchi Boymirza Ҳayitning yozishicha, qurultoyda Farg'ona vodiysi istiqlolchilarining yilboshchisi Shermuhammadbek istiqlol kurashi haqida katta ma`ruza qiddi. Қurultoy oxirida 7 bilim va 36 moddadan iborat maxsus Rezolyutsiya qabul qilindiki, u yuqorida aytib itganimizdek, mamlakatning muvaqqat Konstitutsiyasi edi. Bu hujjat Turkiston o'lkasidagi Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Ettisuv, Zakaspiy viloyatlari hamda Amudaryo bilimi endilikda Turkiston - turk mustaqil islom jumhuriyati tarkibiga kiritilganligini qonun yili bilan mustahkamladi. Unda yozishicha, hukumat tarkibi 15 kishidan iborat bilishi lozim. Ushbu 15 kishi orasidan mamlakat Prezidenti, Vitse - prezidenti va Bosh

kotib saylanmog'i va bu uch kishidan iborat Ijroiya Қimita tuzilib, ular poytaxtda doimiy ravishda ishlashi kizda tutilgan edi. Ҳukumatning beshta a`zosi Farg'ona viloyatidagi Namangan, Andijon, Marg'ilon, Қiqon, Ish kabi beshta tumanning harbiy boshli:qlari qilib tayinlanadigan bo'ldi. Қolgan 7 kishi esa: harbiy; tashqi ishlar; ichki ishlar, pochta va telegraf; diniy ishlar; moliya; adliya; transport vazirlari qilib tayinlanishi lozim edi.

Shermuhammadbek boshchiligida allaqachon tuziltan Turkiston Muvaqqat xukumati Samarqanddagi qurultoyda rasmiy tasdiqlanadi. Afsuski, xukumat a`zolari bu qadim shaharda bir oydan ortiq qola olmaydilar. Chunki istiqlolchilar tomonidan ularni qizil armiya qismlarining kuchli zarbalaridan himoya qilish tobora qiyinlashayotgan edi. Shuning uchun hukumat iz qarorgohini istiqlolchilik harakatining markazi bo'lgan Farg'ona vodiysining Namangan tumaniga kichirdi. Faqatgina uch oy mobaynida hukumat iz qarorgohini besh marta izgartirishga majbur biddi (Samarqand, Namangan, Ush, Marg'ilon atrofidagi Ғoyibota va Norin).

Shermuhammadbek Samarqanddagi anjumandan tezda qaytib kelgach, 1922 yil 22 aprelda Қiqon uezdidagi Қorabuva qishlog'ida Farg'ona qo'rboshilarining navbatdagi qurultoyini itkazdi. Vodiyda harakat qilayotgan 200 atrofidagi qo'rboshilar dastalaridan eng obro'lilari bo'lgan Nurmuhammadbek, Toshmuhammadbsk, Rizimuhammadbek (Shermuhammadbekning birodarlari), Islom Polvon, Ahmad Polvon, Қoraboy, Mama Rizi va boshqalar ushbu qurultoyda qatnashdilar. Қurultoyda Shermuhammadbek Samarqandda kuni kecha bilib itgan anjuman ishi to'g'risida hisobot berdi. Ushbu qurultoyda vodiy istiqlolchilarining 1922 yildagi jang harakatlari va qo'rboshilarning faoliyat doiralari kelishib olindi. Shermuhammadbek Farg'ona vodiysi mujohidlarining yilboshchisi - Oliy bosh qimondon sifatida yana bir bor e`tirof etiddi.

Shermuhammadbek bu paytda Buxoro va Xorazm respublikalari hamda Samarqand viloyatida harakat qilayotgan istiqlolchilar bilan aloqalarni yilga qiydi. Anvar Posho va Junaidxon bilan uch tomonlama hamkorlik o'rnatildi. Shuningdek, Shermuhammadbekning Sharqiy Buxoro qo'rboshilari Ibrohimbek va Fuzayl Maxdum bilan munosabatlari yaxshi bo'lgan. Afg'oniston bilan ham aloqalar rivojlangan. Bir hujjatda yozilishicha, Shermuhammadbekning Baliqchi tumanidagi Oqtepa qishlog'ida joylashgan qarorgohiga 14 iyunda 25 afg'on instruktori kelib, qo'rboshilar yigitlariga xarbiy ishdan saboq berishga kirishdilar.

Shermuhammadbek tomonidan 1922 yil kuzida chiqarilgan va Turkiston xalqiga qilingan murojaatnomada aytilishicha, "Afg'oniston, Turkiya, Xitoy konsullari Salim Posho bilan Ҳamkorlikda Shermuhammadbekning ish olib borishi lozimligini uqdirganlar". Shermuhammadbek konsullar oldiga uning ixtiyoriga 20.000 kishilik qishin berish talabini qiygan. Bu talab qondiriladi, deb va`da qilingan bilsada, Shermuhammadbekka keyinchalik hech qanday harbiy yordam ko'rsatilmaydi.

Shermuhammadbek Salim Posho tomonidan Farg'ona istiqlolchilariga qarata yozilgan maktubni Sharqiy Buxoroda bo'lganida shaxsan izi bilan olib kelib, uni xam qo'rboshilar o'rtasida tarqatadi. Ushbu maktubda tez orada mustabid sovet

rejimiga qarshi yangi jang xarakatlari boshlanishi, barcha qo’rboshilar iz yigitlari va harbiy kuchlarni jangovar holatda ushlab turishlari lozimligi ta`kidlangan edi.

Lekin dekabr oyida qizil armiya qismlari istiqlolchilarga kuchli zarbalar berishga muvaffaq bo’ldilar. Ҳarbiy kuch - qudrat va miqdor jihatdan ustun bo’lgan qizil askarlar bir qator g’alabalarga erishdilar.

Shermuhammadbek boshchiligida tuzilgan Turkiston Muvaqqat hukumati 1922 yil oxiriga kelib tarqalib ketishga majbur bo’ldi. Chunki xukumat a`zolari izlariga topshirilgan vazifalarni bajarish irniga janglarda ishtirok etishga majbur bo’ldilar. Shermuhammadbek xukumati xorijiy davlatlar bilan ham samarali aloqa o’rnata olmadi. Afg’oniston, Turkiya, Xitoy vakillari bilan bo’lgan muzokaralar qariyb quruq gapdan nariga itmadi. Binobarin, Turkiston Muvaqqat hukumati tarqalib ketgan bilsada, Shemuxammadbek 1923 yilning boshigacha xukumat raisi sifatida istiqlolchilarga raxbarlik qildi.

Shermuhammadbekning izi zsa qator janglardan sing, 1922 yil dekabr oyining singgi kunlarida ukasi Nurmuxammadbek va qo’rboshi Tixtasin Maqsud bilan umumiy miqdori. 450 - 500 yigitdan iborat qishinni olib, oldin Buxoro respublikasi hududiga, 1923 yilning baxorida esa Afg’onistonga o’tib ketdi. Uning keyinchalik vodiyga yana qaytib kelish maqsadida qo’lgan barcha urinishlari sovet hokimiyati tomonidan yiqqa chiqaildi.

1923 yil fevralning oxirida Turkistondan chiqib eron orqali Kobulga kelgan taniqli munavvar Axmad Zakiy Validiy bu erda Shermuhammadbek va Nurmuxammadbek bilan uchrashganligini, bu ikki qo’rboshi unda yaxshi taassurot qoldirganligini keyinchalik iz "Xotiralar" kitobida yozgan edi. "Shermuhammadbek xalqiga sodiq bir kishi", - deb uni ta`riflaydi Validiy.

Shermuhammadbekning akalari Toshmuxammadbek, Tojmuhammadbek va Rizimuxammadbek ham iz ukasining qishini safida istiqlol janglarida qatnashishdi. Ular 1923 yiling oxirida qizil askarlar tomonidan qo’lga olinib, singra otib tashlanadilar.

Aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuxammadbekning Afg’onistonda muxojirlikda itgan xayotlari ancha mashaqqatli bo’ldi. Kobulning rasmiy hukumati sovet Rossiyasining tazyiqi bilan istiqlolchilarni noxush qarshilar edi. Shermuhammadbek shuning uchun 1923 yil oktabrda Peshovarga borib, u erdagi Buyuk Britaniya vakilligidan siyosiy boshpana siraydi, Lskin uning 140 tarafdoriga siyosiy muhojirlik huquqlari berilmaydi. U 1924 yil bahorida Koshg’ar orqali Farg’ona vodiysiga 20.000 askar bilan itmoqchi biladi. Lekin bu miqdordagi qishinni tiplay olmaydi. Natijada Shermuhammadbek 1924 yil 17 martda Peshovarni tark etib, yana Afg’onistonga kelishga majbur biladi. Uning Ҳindistonga bormoqchi bilib qo’lgan iltimoslarini xam Buyuk Britaniya hukumatining rasmiy vakillari bir necha marta rad etadi.

Shermuhammadbek 1929 yil Afg’onistondan kichik qishin bilan Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga itmoqchi bo’lganida sovet aviatsiyasi yordamida ortga qaytarildi. U muhojirlikda ham Turkiston mustaqilligi uchun kurash g’oyasidan aslo voz kechmadi.

Shermuhammadbek Afg’onistonda tuzilgan turkistonlik muhojirlarning "Vatanni ozod qilish" (ba`zi manbalarda "faol") nomli yashirin tashkilotining

asoschilaridan biri hisoblanadi. Ulamolar peshvosi Said Muboshirxoi Taroziy tashkilotning boshlig'i, Shermuhammadbek xarbiy kuchlarning Bosh qimondoni edi. Shermuhammadbek ukasi Nurmuhammadbek va muftiy Sadriddinxon Sharifxija ig'li orqali Buxoro mhojirlarining boshlig'i amir Said Olimxon bilan doimiy muloqotda bilib turgan.

Ba`zi adabiyotlarda yozilishicha, Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniya razvedkasi bu tashkilotning SSSRga. Қarshi faoliyatini qillab-quvvatlaydi. SSSRning tazyiqi bilan Afg'oniston hikumata 1943 yil martida tashkilotning rahbarlari va faollarini, shu jumladan, Shermuhammadbekni ham qamoqqa oladi. U ikki yil umrini tutqunlikda itkazadi. Biroq qamoq dahshatlari ham Shermuhammadbek irodasini bukishga ojizlik qiladi, uni iz maqsadidan qaytara olmaydi.

"Shermuhammadbek qotmadan kelgan, baland biyli, chiqqi soqol bir kishi bilib, peshonasiga qizil qiyiq bog'lagan, egniga chopon tashlagan kiyi mag'rur, bemalol itirardi",—deb keyinchalik eslaydi uni 1944 yilda Kobul qamoqxonasida kirgan yurtdoshimiz Zuxriddin Mirza Obid ig'li Turkistoniy.

Shermuhammadbek qamoqdan chiqqanidan sing ma`lum muddat Ҳindistonga ketadi. 1951 - 1959 yillarda Pokistonda yashaydi. 1959 yildan to umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida hayot kechirdi, Shermuhammadbek 1970 yil 10 martda, ukasi Nurmuhammadbek 1983 yil 10 yanvarda Adana shahrida vafot etishadi. Shermuhammadbekning ilimi turkistonlik muhojirlar uchun katta yiqotish bo'ldi. Uning dafn marosimiga minglab kishilar yig'ildi. Isha kunlari Adana shahrida motam e`lon qilindi. Marosim qatnashchilari Turkiston milliy bayrog'i va Shermuxdmmadbek tobutini ko'targan holda butun shaharni aylanib chiqishdi. Turkiya matbuotida isha paytda turkiy xalqlarning bu jasur ig'loni haqida, uning murakkab va ziddiyatli, zafarlarga tiliq va mag'lubiyatlardan xoli bilmagan sarkardalik faoliyati to'g'risida ko'plab maqolalar bosiddi.

Shermuhammadbekning farzandlari xozirgi kunda AҚSh va Turkiyada yashaydilar. Shermuhammadbek muhojirlikda Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati va izi boshchilik qo'lgan mujohidlar faoliyati xaqida mashhur xotiralarii yozib qoddirgan.

Kichik va Katta Ergash, Madaminbek va Shermuhammadbekdan tashqari Farg'ona vodiysidagi istiklolchilarga 1923-1935 yillarda Islom Polvon va YOrmat Maxsum umumiy rahbarlik qilishdi. Bundan tashqari Omon Polvon, Muhiddinbek, Rahmonqul kabi qo'rboshilar Farg'onada, Ochilbek va Bahrombek Samarqand viloyatida eng mashxur qo'rboshilar sanalgan.

Ma`lumki, Turkiston ayollari uchup Vatan ozodligi va uning tinchligi muqaddas hisoblangan. Olis va yaqin tarixda bosqinchilarga qarshi turkiy ayollarimiz ham necha bor jang maydonlarida ot surganligi, vatanparvar kuchlarga boshchilik qo'lganligi ma`lum, Ҳatto, ayollardan maxsus biljnmalar tuzilgan. Asrimiz boshlaridagi istiqlolchilar safida izbek va boshqa qardosh xalqlarning ayollari ham bo'lganligi ma`lum bilsada, lekin ayollardan chiqqan qo'rboshilar xususida kitoblarda xech qanday ma`lumotlar uchramas edi. Arxiv manbalarining dalolat berishicha, Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilar safida izbek va qirg'iz ayollaridan qo'rboshilar bo'lgan. Xususan, Muhiddinbekning onasi va Shakarxon

qo'rboshi boshchilik qo'lgan guruxlar qizil askarlar yuragiga g'ulg'ula solgan. Asli oltiariqlik usta Xoliqboyning qizi bo'lgan Shakarxon qo'rboshi 1921 yilning oxirida Қayrag'och qishlog'ida bo'lgan janglariiig birida halok biladi. Buxoro respublikasida xam ayollardan chiqqan bir qator qo'rboshilar bo'lgan. Karmanalik Nodira qiz Ibrohimbek qishinida maxsus guruhga boshchilik qilib, Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi mardonavor kurashgan.

Xulosa qilib aytganda, istiqlolchilik harakatini yagona markazga uyushtirishda qo'rboshilar katta rol' iynashdi, Istiqlolchilik harakatiga rahbarlik qo'lgan va uning g'oyaviy mafkurachilari bo'lgan islom ulamolari o'rtasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlarining pirlari ko'p bilishgan. Xorijlik tadqiqotchi Meri Broksapning yozishicha, Farg'ona — dagi eng qattiqqil qo'rboshi Xolxija eshon yassaviylik tariqatining vakili bo'lgan. Islom Polvon va Mulla Dehqon qo'rboshilar ham tasavvuf shayxlari edi. Shuningdek, Namanganlik Nosirxon Tira Said Kamolxon Tira ig'li, Toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxija qozi ig'li, Turkiston MIKning sobiq irinbosari Tiraqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Axmad Zakiy Validiy va boshqalar ham istiqlolchilik harakatining g'oyaviy mafkurachilari edi.

Istiqlolchilik xarakatini tashkiliy jihatdan uyushtirishda qo'rboshilar qurultoyining ahamiyati juda kahta bo'lgan. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Turkistonda isha yillari qo'rboshilarniig 30 dan ortiq qurultoylari bilib itdi. Ushbu qurultoylarda rahbarlar saylangan, qo'rboshilar yagona qimondonlik ostida birlashtirilgan. Ҳolbuki, bunga hamma payt xam amal qilinmas edi.
Shuningdek, qurultoylarda qo'rboshilar dastalari harakat qiladigan joylar va ularning ta`sir doirasi ham belgilab olingan.

### *ADABIYOTLAR:*


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yiq. -T.: Sharq, 1998.
2. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -T.: 1994.
3. Validiy A.Z. Bilingannni biri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.
4. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2000.
5. Mustafo Chiqay ig'li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1992.
6. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O'zbekiston. 2000.
7. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
8. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
9. O'zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
10. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
11. Xasanov M. Turkiston muhtoriyati: haqiqat va uydirma. G'G'Fan va turmush. 1990. 9,10,11-sonlar.

12. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O’zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. -Andijon, «Andilon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004.
13. Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida iylar. G’G’Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.
14. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., Fan, 1991.

## 3-MAVZU: XORAZM VA BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA ISTIQLOLChILIK HARAKATI VA UNING IZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

### REJA:

1. Qurbon Mamed Sardor – Junaidxon Xiva xonligida istiqlol uchun kurashning bosh rahnamosi.
2. Xiva xonligining qizil armiya qismlari tomonidan tugatilishi. XXSRning tuzilishi. XXSRda istiqlol uchun kurash.
3. Amir hokimiyatining ag’darilishi va istiqlol uchun kurashning boshlanishi.
4. Ibrohimbek Laqay, mulla Abduqahhor, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqa qo’rboshilarning faoliyati.
5. Anvar Poshoning Buxoroga tashrifi. Istiqlol uchun kurashning yangi bosqichga ko’tarilishi.
6. Xorazm va Buxoroda istiqlol uchun kurashning mag’lubiyatga uchrashi sabablari.

MAQSAD: Talabalarga Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikasida istiqlol uchun olib borilgan kurashlar va Vatan ozodligi yilida kurashgan qahramonlar haqida batafsil ma`lumot berish. Talaba-yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash

1917yil Turkistonda yuz bergan voqealar natijasida Xorazmda ham demokratik harakat avj oldi. Natijada, Xiva xonligida millatlararo munosabatlar keskinlashib, hokimiyat masalasida xorazmliklar bilan turkmanlar o’rtasida jiddiy raqobat yuzaga keldi. Turkman urug’laridan ilgan yovmutlarning etakchisi Қurbon Mamed Sardor — Junaidxon (1857—1938) bu masalada faollik ko’rsata boshladi. Junaidxon Xiva xonidan norozi bo’lgan tarqoq turkman qabilalarini qisqa muddat ichida birlashtirdi va 1918 yil boshlarida bir yarim mingdan ortiq qurolli otliqqa ega bilib, Xiva xoniga jiddiy xavf sola boshladi. 1918 yil yanvarida Xiva xoni Asfandiyorxon nufuzli eshon va mullalar orqali Junaidxon bilan aloqa bog’lab, mamlakatni birgalikda idora qilish va bolsheviklarga zarba berishni uyushtirish haqida muzokara itkazish uchun uni poytaxtga taklif qildi. Junaidxon qasamyod qo’lganidan keyin u Xiva xonligi qishinlarining qimondoni etib tayinlandi.

Bu paytga kelib mamlakatdagi tashqi va ichki siyosiy vaziyat juda keskinlashgan edi. Xivaning bevosita qishnisi bilmish Turkistonning Amudaryo

bilimida 1918 yil boshlarida bolsheviklar hokimiyati o’rnatilgach, xonlikka uning ta`siri kuchaydi. Ammo irodasi zaif va aysh-ishratga ich Xiva xukmdori Asfandiyorxon bolsheviklar tajovuzidan mamlakatni ximoya qilishga qodir emas edi. 1918 yil 1 oktabrda Xiva xoni Asfandiyorxon Junaidxonning ig’li eshim boshchiligidagi suiqasdchilar guruhi tomonidan iz saroyida pichoqlab ildirildi. Junaidxon ildirilgan xon irniga uning akasi (jismoniy jihatdan ojiz, irodasiz) Said Abdullani Xiva taxtiga xon qilib itqazdi. Aslida, u «Junaidxon qilidagi qig’irchoq xonga aylanib», amalda esa, xonlikning mutlaq xukmdori Junaidxon edi. U barcha davlat ishlarini izi boshqarar, mas`ul lavozimlarga iz kishilarini tayinlardi.

Junaidxon yuzaga kelgan ichki siyosiy vaziyatdan ustalik bilan foydalanib, ayrim turkman qabilalarining chuqur ildizga ega bo’lgan manfaatlarini iz maqsadi sifatida ko’rsatdi hamda izini ushbu g’oyalarni amalga oshirishda qodir bo’lgan yagona kishi sifatida namoyon qildi. U nafaqat kichmanchi turkman qabilalari o’rtasida, balki qozoq, qoraqalloq urug’lari va itroq yashovchi izbeklar orasida ham katta shuhrat qozondi va ularning madadiga tayandi. Junaidxon Xivada xukmronlik qo’lgan davrda (1918 yil noyabr  1920 yil yanvar) kechagina chor va sovet Rossiyasiga qaram bo’lgan Xiva xonligi amalda mustaqil davlatga aylandi. Junaidxonning qattiqqil siyosati bu borada muxim rol’ iynaydi.

Junaidxon nomi tarix sahifalariga murakkab va ziddiyatli shaxs sifatida bitilgan. Uning faoliyati ham shaxsiyatidek keskin va fojiali, zafarli va qayg’uli kechdi. Oldin chor Rossiyasi va Xiva xoniga qarshi kurashgan Junaidxon 1918 yil o’rtalaridan e`tiboran qizil askarlarga qarshi mustaqillik uchun jangga kirdi. Axmad Zaki Validiy izining «Xotiralar» kitobida Junaidxonni «Rossiya hukmronligi oldida biyin egishni xohlamagan davlat qahramoni», sifatida ta`riflagan edi.

Қisqa muddatda Junaidxon iz qishinini 10.000 kishiga etkazdi. Uning qishinlari Қizil Arvat, Қozonjiq, Marv va boshqa joylarda sovet qismlariga qarshi jangga kirdilar. Biroq Amudaryo bilimi hududida 1918 yil sentyabr  1919 yil martida bo’lgan harbiy harakatlar uning askarlari xali bolsheviklarga qarshi kurashga tayyor emasligini ko’rsatdi. Junaidxon chekindi va bolsheviklar bilan sulh muzokaralari boshlashga rozi bo’ldi. Lekin muzokarada RSFSRni xonlikning ichki ishlariga aralashmasligi va Xorazmdan rus qishinlarini olib ketishi zarurligini keskin qilib quyishi, uning bolsheviklar siyosati bilan murosa qila olmasligini amalda ko’rsatishi edi.

1919 yil 7 aprelda RSFSRning favqulodda muxtor vakili A.N.Xristoforov Junaidxon bilan muzokaralar itkazish uchun uning Taxta qal`asidagi qarorgohiga keldi. 9 aprel kuni Taxta qal`asida sovet Turkistoni bilan Xiva xonligi o’rtasida tinchlik to’g’risidagi shartnoma imzolandi. Muzokaralar paytida Junaidxon qizil askar qishinlarini Xorazmdan olib chiqib ketish masalasini yana keskin qilib qiydi. Shartnomaga binoan, sovet hukumati xonlikdagi xalqlarning iz taqdirini izi belgilash xuquqini tan oldi, ikkala tomon har qanday harbiy harakatlarni to’xtatish, bir-birlariga vakillar yuborishni yilga quyish, ikkala mamlakat fuqarolarining suv va quruqlikdagi barcha yillarda erkin va xavf xatarsiz harakat qilishini, iz hududlarida tijorat  maqsadlarida aloqa o’rnatishlarini kafolatlash majburiyatini oldi. Shartnoma tez orada Turkiston MIҚ va Xiva xoni Said Abdullaxon

tomonidan tasdiqlandi. Biroq, ikkala tomon. ham, xususan, bolsheviklar bu shartnoma talablarini bajarish u yoqda tursin, unga rioya qilishni ham iylamadilar. Natijada, 1919 yil yozida bolsheviklar Turkistoni bilan Xiva o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Junaidxon sovetlar Rossiyasiga qarshi Buxoro amiri Said Olimxon bilan tashqi siyosiy ittifoq tuzdi. Xalq ommasi bu ittifoqni qillab, davlatni bol'sheviqlar bosqinidan asrashga, eng avvalo izining mustaqilliq xuquqini himoya qilishga axd qildi.

1919 yil noyabr 1920 yil yanvar oyida bo'lgan keskin janglar natijasida Junaidxon qishini mag'lubiyatga uchradi. Junaidxonning qarorgohi Taxta qal`asi 20 yanvarda qildan ketdi. Қizil armiyaning Amudaryo (Xiva) gruppasi qishinlari (qimondon N.M.Shcherbakov, siyosiy rahbar G.B.Skalov) 1920 yil 1 fevralda xonlik poytaxti Xiva shahrini egalladilar. 2 fevralda Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi. Turkiston qishinlari shtabi razvedka bilimi boshlig'i Kuvshinovning isha kundagi ma`lumotlariga qaraganda, Junaidxon Xijayli va Urganchda bo'lgan janglarda marlubiyatga uchragan bilsada, Xivadagi butun mahalliy aholini qizil askarlarga qarshi kurashga chaqirib, ularni yagona qimondonlik ostiga birlashtirishga harakat qo'lgan. Xivadan 25 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan G'ozovotda Junaidxon izining 2.500 kishilik otliqlari va 3.000 kishilik yovmutlar lashkarini tiplab, qizil askarlarga qarshi tashlagan. Bilib itgan shiddatli janglardan keyin Junaidxon asosiy kuchlarini olib, Қoraqumdagi turkman ovullariga chekinadi.

Қizil armiyaning bosqinchilik siyosatidan norozi bo'lgan Xorazm vatanparvarlari guruh - guruh bilib Junaidxon qishinlari safini tildira boshladi. Natijada, «Junaidxonning bolsheviklarga qarshi tiplagan qishinida ittiz ming nafardan ortiq mujohidlar jang qildilar. Ularning orasida nafaqat turkmanlar balki izbeklar, qoraqalpoqlar va qozoqlar ham bor edi». Izbek xunarmandlari va dehqonlaridan tashkil topgan qurollangan dastalarga Ota Maxsum, Madraimboy, Sa`dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qo'lgan edilar. Xususan, Kuhna Urganch, Ilyali, Toshhovuz, Mangit, Қishko'pir, Chimboy, Қing'irot va Tirtkilda harakat qo'lgan inlab vatanparvar sardorlarning dastalari qizil askarlarga qarshi jang qildilar. Junaidxon boshchiligidagi istiqlolchilar hujumga o'tib, Қihna Urganch, Xijayli, Ilyali va Taxtani qayta egallashdi, ko'plab qizil askarlarni asirga olishdi. Junaidxon sovet qimondonligiga maxsus maktub yuborib, agar bosqinchilar Xorazmdan chiqib ketishmasa, asirlarni otib tashlashini bo'ldirdi.

1920 yil 23 iyunda Xiva shahrida xon tarafdori bo'lgan ruhoniylar boshchiligida qizg'olon boshlandi. Ular Muhammad Aminxon madrasasiga bir necha ming musulmonni tiplab, shariatni ximoya qilish shiori ostida yosh xivaliklar hukumatini ag'darish va xon xokimiyatini tiklashni talab qilib chiqdilar. Junaidxon poytaxt ostonalariga iz qishini bilan etib kelib, qizg'olonchilarni qillab-quvvatladi. Lekin Xivaga tez orada katta miqdordagi qizil askar qishinlari tashlanganligi sababli qizg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Namoyish qatnashchilari ziurlik bilan tarqatib yuborildi. Ҳarbiy inqilobiy tribunal xukmi bilan qizg'olon etakchilari va uning g'oyaviy rahnamolari Ibrohim Oxun, Rafiq Oxun, Saidjon Қori, Mulla Muhammadniyoz Badirxonli, Muhammadamin Oxun

va boshqalar otib tashlandi. Bu qizg’olonga xech qanday aloqasi biulmasa ham sobiq Xiva xoni Said Abdulla va uning qarindosh-urug’lari, shuningdek, qozikalon Xikmatulla Oxun, Obid Oxun va boshqalar Xorazm Respublikasi hududidan badarg’a qilinib, Rossiya va Turkistonning turli burchaklariga surgun qilindi.

Turkistondagi bolsheviklar rejimi Junaidxonga qarshi kurashda aytarli yutuqqa erisha olmagach, makkorlik yili bilan ayrim turkman urug’lari etakchilaridan foydalandilar. Turkiston Avtonom Respublikasi rahbarlaridan bo’lgan Қ.Otaboevning aytishicha, «Junaidxonga qarshi kurashda qiqqisdan uning dushmanlari hisoblanmish G’ulomali va Қishmamedxon degan turkman yilboshchilari qo’shilib qolishdi. Natijada biz ikki urug’ning izaro kurashuviga erishdik».

Bu xizmatlari evaziga Xorazm Xalq Respublikasi hukumatining a`zolari bo’lgan G’ulomali (ijtimoiy ta`minot noziri) va Қishmamedxonning (Nozirlar Kengashi raisining 2-muovini) keyingi taqdirlari fojiali tugadi. Қizil qishin rahbarlari Ғulomali va Қishmamedxon guruhlarini tugatishga qaror qildilar. 1920 yil sentyabrda hech narsadan shubhalanmay Xiva shahriga qaytib kelgan bu ikki sardor yigitlari ustiga kiqisdan qizil askarlar tashlanishadi. Xoinlarcha xibsga olingan Қishmamedxon oradan bir necha soat itgach, chopib tashlanadi. Ғulomali bilsa qochib, istiqlolchilar tomoniga o’tib ketadi. Қishmamedxonning hamrohlari bo’lgan 80 nafar nufuzli kishilar va urug’ sardorlari ham qizil askarlar tomonidan kechasi qatl qilinadi. Bundan tashqari ikki haftadan keyin boshqa urug’ sardori Shomurod Baxshi ham izining 16 nafar hamrohi bilan birga ildiriladi.

Voqealarning bunday tus olishi xorazmliklar orasida kuchli norozilik uyg’otdi. Bol’sheviklarga, qizil askarlarga ular bosqinchilar sifatida qaray boshladilar. Sovet Rossiyasiga qarshi norozilik kayfiyati kuchaydi. Natijada, muxolifat kuchlarining safi yana kingillilar hisobiga oshib bordi.

Aholi o’rtasidagi bu kayfiyatni to’g’ri idrok qila olgan Junaidxon 1920 yilning oxiri va 1921 yil davomida istiqlolchilik harakatini kuchaytirib asosan hozirgi Turkmaniston tasarrufidagi hududlarda qizil askar qishinlariga qarshi murosasiz kurash olib bordi.

Ma`lumki, 1921 yil oxiri 1922 yil boshlarida Buxoro vatanparvarlarining bosh sarkardasi Anvar Posho Farg’ona va Xorazm qo’rboshilari bilan aloqalar 5 o’rnatib, ularni yagona qimondonliq ostiga birlashtirishga harakat qo’lgan edi. Shu maqsadda Junaidxon bilan Anvar Posho o’rtasida ham izaro yozishmalar bilib, tomonlar bir-birlariga ishonchli vakillarini jinatganlar. Turkiston, Buxoro va Xorazm istiqlolchilarining izaro aloqalari natijasida 1922 yil kiklamida Junaidxon Xorazmda iz faoliyatini yanada kuchaytirdi. Bu paytda uning qishinlari soni 15.000 yigitdan iborat bilib, ular bolsheviklarga qarshi tura oladigan jiddiy kuchga aylangan edi. Masalan, 1922 yil aprel oyida Junaidxon qishinlari Porsu shahri va uning atroflarini qizil askarlardan ozod qilishdi. Kihna Urganch yonidagi qishloqlarda ham ular shiddatli janglar olib bordilar.

Xorazm Respublikasida turgan qizil armiya qismlari Junaidxonga qarshi barcha vositalarni ishga solishdi. Junaidxonning raqibi bo’lgan Ғulomalixondan yana vatanparvarlarga qarshi kurashda foydalanishga qaror qilindi. Izaro

kelishuvga muvofiq G'ulomalixon sovet hokimiyati tomoniga o'tib, Junaidxonga qarshi kurashga rozi bo'ldi. Bol'shevikcha rejim izining butun makr-xiylalarini fidoyilar harakatini tor-mor qilishga qaratgan bilsa ham bu davrda sezilarli yutukqa erisha olmadi. 1922 yilning may oyida bo'lgan janglarda Junaidxon chekingan va izining saralangan askarlarini yuqotgan bilsada (masalan, Raxmonberdi sardor iz dastasi bilan asir tushishga majbur bo'lgan edi), uning qishinlari safiga tobora yangi kingillilar kelib qo'shilar edi. Xorazmning eng mashxur boylari Badrimboy, Sodiqboy, Matchonbek Tira, Ahmadbek va Ortiq eshon istiqlolchilarni moddiy jihatdan ta`minlab turishdi.

1922 yil 15 noyabrda Xorazm Kompartiyasi MK Ijroiya byurosi majlisida «bosmachilarga qarshi kurash uchun favqulodda chora-tadbirlar» belgilandi. RKP(b) MK Irta Osiyo Byurosining tazyiqi bilan Xorazm kommunistlari Davlat Siyosiy boshqarmasi (GPU) huzurida «bosmachilikka qarshi kurash uchun favqulodda uchlik (troyka)» tuzish zarurligini Nozirlar Kengashiga topshirdi. Favqulodda uchlik zudlik bilan ishga kirishishi va «bosmachilar» hamda ularga yordam berishda shubhalangan barcha shaxslarni 24 soat ichida otib tashlashi shart edi. Uchlik tarkibiga Siyosiy boshqarma raisi (Bobo Muhammadjonov), inqilobiy tribunal raisi (Mansurov), Қozoq bilimi boshlig'i (Tagan Abdullaev) kiritildi. Xorazm, Buxoro va Turkiston respublikalarida tuzilgan bunday favqulodda uchliklar Vatanimiz tarixida ita mudxish iz qoldirdi.

Markaz Xorazmda bosmachilik harakatini tezlik bilan bartaraf qilish uchun barcha imkoniyatni ishga soldi. Bu talab, ayniqsa, 1923 yildan boshlab yanada kuchaydi. 1923 yil 12 yanvarda bo'lgan 3-chaqiriq XXSR MIK II sessiyasida Xorazmda 4 yildan buyon davom etib kelayotgan «bosmachilik» harakatiga qarshi mavjud hukumatning izi kurash olib borishga ojiz ekanligi ochiq aytilib, RSFSR (aslida SSSR) hukumatidan «shoshilinch harbiy yordam» siraldi.

Sessiya qaroriga asosan, Xorazm Respublikasi MIK raisi Abdulla Xojiev 1923 yil 4 fevralda maxsus qaror bilan RSFSRdan qishimcha ravishda yana harbiy yordam sirashga majbur bo'ldi. Mazkur qarorda «bosmachilar» bilan kurash hali kingildagidek natijalar bermayotganligi ochiq ravishda e`tirof etilgan edi. Xorazm Respublikasining «iltimosi»ga binoan Markaz zudlik bilan Ashxobod va boshqa shaharlardan Xorazmga aeroplanlar yubordi. Xalqlar, millatlar va guruhlar o'rtasiga nifoq solishda «ustasi farang» bilib ketgan bolsheviklar Junaidxonga qarshi kurashga turkman qabila boshliqlarini kindirishga muvaffaq bo'ldi. 1923 yil 8 avgustda Taxta Bozor qal`asida barcha qabila dohiylarining qurultoyi bilib, unda 15 kishi imzolagan tinchlik shartnomasi qabul qilindi. Bu hujjatda «Junaidxon turkman xalqi va Sovet hokimiyatining dushmani deb e`lon qilindi». Avgust oyining oxirlaridan boshlab Junaidxonga qarshi jang harakatlarida qizil askarlar bilan birgalikda turkman sardorlarining yigitlari ham qatnashishga majbur qilindi. Bol'sheviklarning asosiy maqsadi voha qishloqlaridagi mavjud «mahalliy bosmachilar»ga qarshi kurashni faollashtirish va ularning Қoraqumdagi Junaidxon qishinlari bilan aloqa o'rnatishiga va bu kuchlar birlashishiga mutlaqo yil quymaslik va shu yil bilan Junaidxonni yakkalab, uning tayanchi bo'lgan Xorazm xalqidan ajratib qiyishdan iborat edi.

1923 yildan boshlab, Xorazm Respublikasida ham, Turkiston, Buxoro respublikalarida bo'lganidek Rossiya qonunlarini joriy qilish boshlandi, iqtisodiy jihatdan RSFSR, Turkiston va Buxoro respublikalari bilan birlashtirdi , yagona pul va soliq tizimi joriy qilindi va, nihoyat, 1923 yil oktabr oyida bolsheviklar andozasidagi yangi konstitutsiya qabul qilindi. Oxir oqibatda mustaqil Xorazm Respublikasi markazga butunlay tobe qilib qiyildi. Xukumat siyosatidagi bu keskin burilish Vatani mustaqilligini qadrlagan Xorazm xalqining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada hukumatning bu siyosatidan norozi bo'lgan vatanparvarlar istiqlolchilar safini yana tildirdilar. Mamlakatning markaziy va janubiy qismlarida bir qator qo'rboshi hamda sardorlarning harakatlari yana avj oldi.

Sovet hukumati 1923 yil oxirida Junaidxon bilan yana sulh muzokaralarini boshlashga urinib kirdi. Biroq Junaidxon izining oldingi talabini, ya`ni:

1)Rossiya qishinlarini Xorazmdan darhol olib chiqib ketish;

2) shariatga tila erkinlik berish;

3) barcha sobiq hokimlar va oqsoqollarni yana iz lavozimlariga tiklash;

4) soliqlar va patentlarni bekor qilishni qat`iy qilib qiydi.

Tabiiyki, bu talablarni sovet hukumati rad qildi. Natijada muzokaralar iz-izidan to'xtab qoldi.

Junaidxon qilida bu paytda katta miqdorda harbiy kuch tiplagan edi. Shu bilan birga 1923 yilning dekabrida Pitnak, Xazorasp, Borot, Xonqa tumanlarida yangi sovet hukumatiga qarshi dehqonlarning ommaviy qizg'olonlari boshlanib ketdi. Қizg'olonchilar joylardagi sovet tashkilotlarini tugatib, mamlakat poytaxti Xiva shahri ustiga yurish qildilar. Қoraqumda turgan Junaidxon qishinlari ham g'arb tomondan, bir vaqtning izida shaharga qarab harakat boshladi.

1924 yil 10 yanvardan boshlab Junaidxonning 15.000 kishilik piyoda va otliqlardan iborat qishini Xiva shahrini qamal qilishga kirishdi. 16 yanvarda Xorazm Respublikasida harbiy holat joriy qilindi. 17 yanvarda Xorazm kompartiyasi qaroriga binoan Matkarim Abdusalomov boshchiligida Ҳarbiy inqilobiy qimita tuzildi. Lekin bu choralarga qaramasdan, qizg'olonchilar yanvar oyining oxirlarida shaharga kirishga va ayrim kichalarni egallashga muvaffaq bo'ldilar. 26 yanvar kechqurun shaxar ichida bo'lgan janglar, ayniqsa, shiddatli bo'ldi. Bu jangda Junaidxonning qarindoshi Bayramalixon ildirilib, uning izi yarador qilindi.

Buxoroda yangidan boshlangan bu harakat vatanparvarlar kurashining ikkinchi davrini boshlab berdi. Bu davr 1925-1935 yillarni iz ichiga oldi. Bu yillarda kurash asosan Sharqiy Buxoroda (hozirgi Tojikiston Respublikasi hududida) va O'zbekiston Respublikasining hozirgi Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida avj oldi. Bu yillarda istiqlolchilik harakati birinchi davrdagi kabi uzluksiz davom etmadi, u uzilishlar vaqti-vaqti bilan ko'tarilib va pasayib turishi bilan ajralib turdi. Qurolli muxolifat harakatiga umumiy qimondonlik Ibrohimbek qilida edi. U ayrim uzilishlar bilan harakatni 1931 yilning yozigacha boshqaradi. 1931 yil 23 iyunda sovet chekistlari tomonidan Ibrohimbek qo'lga olinadi va, oradan bir yil itgach, otib tashlanadi. Shu tariqa, Buxoroda bolsheviklar rejimiga qarshi ozodlik kurashiga chek quyiladi.

Xayriyatki, buyuk vatanparvar bobolarimiz tikkan qutlug' qon behuda ketmadi. Turkistondagi istiqlolchilik harakati O'zbekiston Respublikasining mustaqilligiga erishish uchun bo'lgan kurashlar bosqichida muxim rol' iynab, Vatanimiz yangi tarixining eng shonli sahifalarini tashkil qiladi.

## ADABIYOTLAR:


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yiq. -T.: Sharq, 1998.
2. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -T.: 1994.
3. Validiy A.Z. Bilingannni biri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. –T.: Adolat. 1997.
4. Mustafo Chiqay ig'li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1992.
5. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. –T.: O'zbekiston. 2000.
6. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. –T.: Universitet, 2002.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. –T.: Sharq, 2000.
8. O'zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
9. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
10. Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida iylar. G'G'Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.
11. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., Fan, 1991.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligi**

**Namangan Davlat universiteti**

Vatan tarixi kafedrasi

# Istiqlolchilik harakati tarixi

fanidan seminar mashg'ulotlari uchun

**USLUBIY KO'RSATMA**



**Namangan - 2008**

Istiqlolchilik harakati tarixi fanidan seminar mashg’ulotlari uchun uslubiy ko’rsatma.

**(IV kurs talabalari uchun)**

**Ushbu uslubiy ko’rsatmada Istiqlolchilik tarixi fani seminar mashg’ulotlari uchun o’tiladigan mavzularning rejalari, rejaga muvofiq uslubiy maslahatlar, seminar mashg’ulotlariga talabalarni mustaqil tayyorgarlik ko’rishlari uchun asosiy va qo’shimcha adabiyotlar manba sifatida berilgan.**

**Ushbu uslubiy ko’rsatmadan tarix va notarix fakul’tetlarning talabalari hamda fan o’qituvchilari foydalanishlari mumkin.**


Mas`ul muharrir: t.f.d. Rasulov A.N.

**Taqrizchilar: t.f.n., dots. Yulchiboyev S**
**t.f.n. Mallabaev B.B.**

Muallif:
**A.A.Isoqboyev, t.f.n., katta o’qituvchi.**



**Ushbu uslubiy ko’rsatma Vatan tarixi kafedrasining 2008 yil 26 avgustdagi 1-sonli, Tarix fakul’teti Ilmiy kengashining 2008 yil 26 avgustdagi 1-sonli yig’ilishlarida ko’rib chiqilib, o’quv jarayoniga tavsiya etilgan.**



© Namangan Davlat universiteti, 2008 yil.

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q

(Islom Karimov)

## SO'Z BOShI

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, istiqlol xalqimizning ma`naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qator risola va nutqlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlarning xususan, tarix fanining o'rni beqiyosligini ta`kidlab o'tdi. Jumladan, Prezidentimiz milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o'rniga g'oyat yuksak baho berib: «Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir»[1],-deb ko'rsatdi.

Darhaqiqat, o'zbek halqi mustaqillikka tinch yo'l bilan erishgan bo'lsa-da, istiqlol uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o'rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma`naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy to'siqlar bilan xalqdan ajratib qo'yishdek illatga barham berildi.

Mustabidchilik davrida hukmron kommunistik mafkura ta`sirida o'tmishimizdagi talaygina tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kommunistik, ma`muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi.

Buning uchun juda ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan, o'zbek millatining shakllanish jarayoni, o'zbek davlatchiligi tarixi muammolariga

---

[1] Êàðèìîâ È.À. Миллий исти=лол мафкураси-хал= эъти=оди ва буюк келажакка ишончдир.-Т.: Ызбекистон, 2000.-Б.34.

yuzaki tarzda yondoshildi. Yurtimiz tarixida muhim o'rin tutgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar, voqealar sohtalashtirildi. Buyuk tarixiy shaxslarimizning Vatan va millat oldidagi xizmatlari kamsitildi yoki umuman inobatga olinmadi. Amir Temur tarixi, jadidchilik harakati tarixi, istiqlolchilik harakati tarixi noxolis o'rganildi yoki o'rganilmadi.

Tarixchilarimizning hozirgi kundagi dolzarb vazifalaridan biri, o'tmishimizdagi har bir hodisa va voqea ma`lum ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy muhit ta`sirida yuz berganligini hisobga olgan holda, asosli hujjatlarga tayanib, ushbu voqea, hodisalarni har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilishdan iboratdir.

Oliy o'quv yurti talabasi nazariy olgan bilimlarini seminar mashg'ulotlari orqali mustahkamlab borishi kerak. Seminar mashg'ulotlariga talaba qanday tayyorgarlik ko'rishi kerak va bu borada nimalarga e`tibor berishi kerak? Seminar mashg'ulotlari qay tarzda o'tkazilishi maqsadga muvofiq? Shularni hisobga olib, Istiqlolchilik harakati tarixi fanidan seminar mashg'ulotlari bo'yicha reja asosida mazkur uslubiy ko'rsatmani nashr etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Seminar-bu tegishli mavzular bo'yicha talabaning faol ishtirokida o'tkaziladigan guruxiy mashg'ulotlarining bir shakli. Talaba seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida quyidagilarga e`tibor qaratishi zarur:

-berilgan mavzu tarkibidan o'rin olgan, yoritilishi ko'zda tutilgan masalalar mohiyatiga;

-tavsiya etilgan adabiyotlarning rejadagi masalalarni yoritishdagi o'rniga;

-mavzu bo'yicha ma`ruza materiallariga...

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik davomida talabaning shu mashg'ulot masalalarini qangchalik yoritishi mezoni qanday? Bizningcha, talabani qanchalik ko'p yozgani emas, balki qanchalik masalani chuqUr tushungani va erkin, lo'nda qilib tushuntira olgani muhim. Mashg'ulotda boshidan oxirigacha o'qib berish talabaning mavzuga zo'r tayyorgarli ko'rganidan dalolat bermydi. O'ylaymizki, seminar mashg'ulotlarining dastlabki kunlaridanoq, talaba yozib, tayyorlanib

kelganini og'zaki, mustaqil bayon qilishga odatlanishi kerak. To'g'ri, masalani yoritilishi dastlabi paytlarda o'qib bergandek silliq, ravon chiqmasligi mumkin. Ammo jonli, mustaqil, erkin mushohadaga asoslangan holda chiqishi muqarrar.

Talaba seminar mashg'uloti rejasidagi masalani yozma yoritgandan so'ng aynan shu masala bilan bog'liq savollarni o'zi tuzishi ham mAqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, har qanday savol zamida ma`lum ma`noda bilim yotadi. Shuningdek, talaba shu seminar mashg'uloti bo'yicha mustaqil iboralarni hamda test savollari tuzishi ham bilimini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Tuzgan savollaringizdan yana guruhdoshingiz seminar mashg'ulotiga rejadagi masalani yoritib bo'lgandan keyin ham foydalanishi mumkin. Aniqrog'i, kursdoshingizga savol bilan murojaat qilishingiz mumkin. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlikda tarixiy, siyosiy terminlar mohiyatini o'rganish ham zarur hisoblanadi.

Seminar mashg'ulotlari talabalar tomonidan baxsli o'tkazilsa, yanada esda qolarli bo'ladi. Albatta, talaba baxsli masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon qilishga hamda uni asoslashga harakat qilishi kerak.

O'z navbatida talabalar munozaralar yuritish madaniyatini ham egallamoqliklari zarur. Zero, har bir bahs-munozara natijasi murosasizlikka emas, haqiqatni, masala mohiyatini yoritishga xizmat qilishi kerak.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada mustaqil ta`lim mavzulari ham berildi. Albatta, keltirilgan mustaqil ta`lim mavzularini doirasi kengayishi, takomillashtirilishi ham mumkin.

Hurmatli talabalar! Mazkur uslubiy ko'rsatma Sizni Istiqlolchilik harakati tarixini chuqurroq o'rganishingizda doimiy hamrohingiz, maslahatchingiz bo'lib qoladi deb umid qilamiz. O'ylaymizki, Ushbu uslubiy ko'rsatma ham juz`iy kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lmasligi mumkin. Bu borada mutaxassislar tomonidan bildirilgan har qanday taklif va mulohazalar mualliflar tomonidan samimiy qabul qilinadi.

**Tuzuvchilar**

## Seminar mashg'ulotlarning mavzu va rejalari:

### 1-MAVZU: Turkiston qo'rboshilari: jangovar faoliyati va qismati, harakatning g'oyaviy mafkurachilari.

**Reja:**

1. Turkiston istiqlolchilik harakatida qo'rboshilarning tutgan o'rni.
2. Jadid ziyolilari va islom ulamolarining istiqlolchilik harakatiga ta`siri.
3. Buxoro va Xorazm qo'rboshilari.

***E`tibor bering:***

Istiqlolchilarni yagona bayroq ostiga birlashtirishda qo'rboshilarni tutgan o'rni. Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Xorazm qo'rboshilari. Katta ergash (Mulla ergash), Madaminbek, Shermuhammadbek, Qo'rboshilar siyosiy qiyofasiga chizgilar. Jadid ziyolilari va islom ulamolari istiqlolchilarning g'oyaviy rahnamolari va mafkurachilari. Nosirxon To'ra Said Kamolxon To'ra o'g'li, Sadriddinxon Maxsum Sharifxo'ja qozi o'g'li, To'raqul Jonuzoqov, Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. «Turkiston milliy birligi» tashkiloti va uning faoliyati.

*ADABIYOTLAR:*


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998.
2. A`zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Ma`naviyat. 2000.
3. A`zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Ma`naviyat, 2000.
4. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -T.: 1994.
5. Validiy A.Z. Bo'lingannni bo'ri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.
6. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: /./ulom nashriyoti, 2000.

7. Mustafo CHo'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: /./ulom nashriyoti, 1992.
8. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O'zbekiston. 2000.
9. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
11. O'zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
12. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
13. Xasanov M. Turkiston muhtoriyati: haqiqat va uydirma. //Fan va turmush. 1990. 9,10,11-sonlar.
14. Doniyorov Sh. Muhtoriyat qismati. //Sharq yulduzi,1991. 12-son.
15. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. -Andijon, «Andilon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004.
16. Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida o'ylar. //Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.
17. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., Fan, 1991.

## 2-MAVZU: Madaminbek faoliyati va Farg’ona muvaqqat muxtoriyat hukumati.

**Reja:**

7. Madaminbekning istiqlolchilar safiga qo’shilishi. Istiqlolchilarning Madaminbek tomonidan yagona bayroq ostiga birlashtirilishi.
8. Rus krest’yanlar armiyasi bilan ittifoq. Andijon, O’sh va Jaloloboddagi mag’lubiyatlar.
9. Farg’ona muvaqqat muxtoriyat xukumatining tuzilishi va faoliyati.
10. Bol’sheviklar bilan tuzilgan sulh. Madaminbekning o’ldirilishi.

***E`tibor bering:***

Madaminbekning istiqlolchilar safiga qo’shilishi. Istiqlolchilarning Madaminbek tomonidan yagona bayroq ostiga birlashtirilishi. Madaminbek - amir al-muslimin. eski Marg’ilon, Namangan, Andijondagi janglar. Rus krest’yanlar armiyasi bilan ittifoq. Andijon, O’sh va Jaloloboddagi mag’lubiyatlar. Farg’ona muvaqqat muxtoriyat xukumatining tuzilishi va faoliyati. 1920 yil yanvardagi mag’lubiyatlar. 1920 yil 6 martda Skobelev shahrida Madaminbek va 2-Turkiston o’qchi diviziyasining qo’mondoni N.Veryovkin-Roxal’skiy o’rtasida tuzilgan sulx. Madaminbekning xoinona o’ldirilishi.

*ADABIYOTLAR:*


15. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. -T.: Sharq, 1998.
16. A`zamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Ma`naviyat. 2000.
17. A`zamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Ma`naviyat, 2000.
18. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O’zbekiston tarixi. -T.: 1994.
19. Validiy A.Z. Bo’lingannni bo’ri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.
20. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: /./ulom nashriyoti, 2000.

21.Mustafo CHo’qay o’g’li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: /./ulom nashriyoti, 1992.
22.Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O’zbekiston. 2000.
23.Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
24.O’zbekistonning yangi tarixi. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
25.O’zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
26.Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
27.Xasanov M. Turkiston muhtoriyati: haqiqat va uydirma. //Fan va turmush. 1990. 9,10,11-sonlar.
28.Doniyorov Sh. Muhtoriyat qismati. //Sharq yulduzi,1991. 12-son.
29.Shamsutdinov R., Karimov Sh. O’zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. -Andijon, «Andilon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004.
30.Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida o’ylar. //Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.
31.Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., Fan, 1991.

**3-MAVZU: Xorazm xalq sovet respublikasida istiqlolchilik harakati va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

**Reja:**

7. Qurbon Mamed Sardor - Junaidxon Xiva xonligida istiqlol uchun kurashning bosh rahnamosi.
8. Xiva xonligining qizil armiya qismlari tomonidan tugatilishi. XXSRning tuzilishi.
9. XXSRda istiqlol uchun kurash.

***E`tibor bering:***

Qurbon Mamed Sardor – Junaidxon (1857-1938)ning xonlikka qaytishi. Xiva xonligining qizil armiya qismlari tomonidan tugatilishi. Xorazm xalq sovet respublikasining tuzilishi. Istiqlolchilik harakatining boshlanishi. Junaidxon – Xorazm istiqlolchilik harakatining rahnamosi. Ota Maxsum, Madraimboy, Sa`dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek, Rahmonberdi sardor, Og'ajon eshon va /ulomalixonlar faoliyati. Qizil armiya tomonidan Junaidxon qo'shinlarining tor-mor keltirilishi (1924 yil mart-aprel). Xivada Junaidxon va XXSR xukumati vakillari bilan muzokara (1924 yil noyabr). Xorazm vohasida 1931-1935 yillarda Ahmadbek, Durdi Murod, Murodxon, eyli Oxun, O'roz Geldi, Xudoyberdi va Rajab qoralar faoliyati.

*ADABIYOTLAR:*


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998.
2. A`zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Ma`naviyat. 2000.
3. A`zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Ma`naviyat, 2000.
4. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -T.: 1994.
5. Validiy A.Z. Bo'linganni bo'ri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.

6. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: /./ulom nashriyoti, 2000.
7. Mustafo CHo'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: /./ulom nashriyoti, 1992.
8. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O'zbekiston. 2000.
9. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
11. O'zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
12. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
13. Xasanov M. Turkiston muhtoriyati: haqiqat va uydirma. //Fan va turmush. 1990. 9,10,11-sonlar.
14. Doniyorov Sh. Muhtoriyat qismati. //Sharq yulduzi,1991. 12-son.
15. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. -Andijon, «Andilon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004.
16. Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida o'ylar. //Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.
17. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., Fan, 1991.

**4-MAVZU: Buxoro xalq sovet respublikasida istiqlol uchun kurash**.

**Reja:**

1. Amir hokimiyatining ag'darilishi va istiqlol uchun kurashning boshlanishi.
2. Ibrohimbek Laqay, mulla Abduqahhor, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqa qo'rboshilarning faoliyati.
3. Anvar Poshoning Buxoroga tashrifi (1921 yil oktyabr'). Istiqlol uchun kurashning yangi bosqichga ko'tarilishi.
4. Buxoroda istiqlol uchun kurashning mag'lubiyatga uchrashi sabablari.

***E`tibor bering:***

Amir hokimiyatining ag'darilishi va istiqlol uchun kurashning boshlanishi. Ibrohimbek Laqay, mulla Abduqahhor, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqa qo'rboshilarning faoliyati. Anvar Poshoning Buxoroga tashrifi (1921 yil oktyabr'). Istiqlol uchun kurashning yangi bosqichga ko'tarilishi. Baljuvon jangi va Anvar Poshoning shahid bo'lishi. Ibrohimbek Laqay va mulla Abduqahhorlar tomonidan istiqlol uchun kurashning yangi bosqichga ko'tarilishi. Buxoroda istiqlol uchun kurashning mag'lubiyatga uchrashi sabablari.

*ADABIYOTLAR:*


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998.
2. A`zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Ma`naviyat. 2000.
3. A`zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Ma`naviyat, 2000.
4. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -T.: 1994.
5. Validiy A.Z. Bo'lingannni bo'ri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.
6. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: /./ulom nashriyoti, 2000.

7. Mustafo CHo'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: /./ulom nashriyoti, 1992.
8. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O'zbekiston. 2000.
9. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
11. O'zbekiston tarixi (ma`ruzalar matni). 2-kitob, Namangan, 2005.
12. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. T., 1990.
13. Xasanov M. Turkiston muhtoriyati: haqiqat va uydirma. //Fan va turmush. 1990. 9,10,11-sonlar.
14. Doniyorov Sh. Muhtoriyat qismati. //Sharq yulduzi,1991. 12-son.
15. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. -Andijon, «Andilon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004.
16. Shamsutdinov G. Bosmachilik haqida o'ylar. //Muloqot. 1993. 7,8-sonlar.
17. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., Fan, 1991.

**Istiqlolchilik harakati tarixi harakati tarixi fanidan mustaqil ta`lim mavzulari:**

1. Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi istiqlolchilik harakatining kelib chiqishi sabablari va uning mohiyati.
2. Madaminbek – istiqlol uchun kurash fidoiysi.
3. Jadid ziyolilari va islom ulamolarining istiqlolchilik harakatida tutgan o’rni.
4. Qurbon Mamed Sardor (Junaidxon) – Xorazm istiqlolchilarining rahnamosi.
5. Ibrohimbek Laqayning istiqlolchilik harakati tarixida tutgan o’rni.
6. Anvar Poshoning Turkiston istiqloli yo’lidagi kurashi.
7. Sovet tuzumi davrida istiqlolchilik («bosmachilik») harakatiga bo’lgan munosabat.
8. Shermuhammadbek – millat qahramoni.
9. Sharqiy Buxoroda istiqlol uchun kurash va uning o’ziga xos xususiyatlari.
10. Turkistonda istiqlolchilik harakati birinchi bosqichining (1918-1922) o’ziga xos hususiyatlari.
11. Qizil armiya qismlari va arman dashnoqlarining Farg’ona vodiysidagi xunrezliklari.
12. Qo’rboshilar qurultoylari va ularning istiqlolchilik harakati tarixida tutgan o’rni.
13. Farg’ona, Samarqand, Buxoro va Xorazm qo’rboshilari.
14. Farg’ona muvaqqat muxtoriyat xukumatining tuzilishi va faoliyati.
15. Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyatining tuzilishi va uning faoliyati.
16. XX asrning 30-yillari boshida istiqlolchilik harakatining qaytadan avj olishi.
17. Istiqlolchilik harakatining butunlay mag’lubiyatga uchrashi, sabalari, yakunlari va saboqlari.

18. Buxoroda mulla Abduqahhor, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqa qo'rboshilarning faoliyati.
19. Tojikiston va Turkmaniston SSRda istiqlol uchun janglar.
20. Farg'ona vodiysida mulla ergash, Omon polvon, Xolxo'ja eshon, Muhiddinbek, Parpibek va boshqa qo'rboshilarning faoliyati.
21. Xorazm vohasida 1931-1935 yillarda Ahmadbek, Durdi Murod, Murodxon, eyli Oxun, O'roz Geldi, Xudoyberdi va Rajab qoralar faoliyati.
22. Istiqlolchilik harakatining Vatanimiz tarixida tutgan o'rni.
23. Istiqlolchilik harakatining yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni.

**TEST SAVOLLARI.**

Yo’nalish shifri: 5220200

Yo’nalish nomi: Tarix

Istiqlolchilik harakati tarixi fanidan test savollari
Variant №1

1. Turkistonda bol’shevikcha tuzumga qarshi istiqlolchilik harakati boshlangan vaqtni kirsating?
A) 1917 yil noyabr’ B) 1917 yil dekabr’
C) 1918 yil yanvar’ *D) 1918 yil fevral’
2. Turkiston Muxtoriyati qo’shiniga kim boshchilik qilganligini kirsating?
A) Katta Ergash *B) Kichik Ergash
C) Madaminbek D) Shermuhammadbek
3. Kichik Ergashning shashid bo’lgan sanasini kirsating?
*A) 1918 yil 27 fevral’ B) 1918 yil 1 mart
C) 1918 yil 5 mart D) 1918 yil 1 aprel’
4. 1918 yil mart oyiga kelib Farg’ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda nechta qo’rboshi faoliyat kirsatgan?
A) 30 nafardan ortiq B) 33 nafar
C) 35 nafardan ortiq *D) 40 nafardan ortiq
5. 1918 yil mart oyida Jonibek qozi harakat qilgan hududni ko’rsating?
A) Marg’ilon B) Namangan *C) O’zgan D) O’sh
6. 1918 yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog’ida Farg’ona qo’rboshilarining birinchi qurultoyi kimlarning tashabbusi bilan chaqirildi?
*A) "Shiroi Ulamo"chilar B) Qo’rboshilar
C) Jadidlar D) Mashalliy asholi
7. "Turkiston yurishining asl maqsadi, butun Turkistonni ishg’ol qilishdan iboratdir». Ushbu so’zlar muallifini ko’rsating?
A) Kobozev B) Kolesov *C) Frunze D) Perfil’ev
8. 1922 yil iyulida bo’lgan Turkiston MIQ 4-plenumida istiqlolchilik harakati natijasida o’lkada vujudga kelgan vaziyatni kim tig’ri baholagan edi?
*A) Q.Otaboev B) I.Xidiraliev C) T.Risqulov D) Y.Oxunboboev
9. 1918 yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog’ida bo’lgan Farg’ona qo’rboshilarning birinchi qurultoyida kim amir-al-muslimin etib saylangan edi?
A) Madaminbek *B) Katta Ergash C) Shermuhammadbek D) Parpi
10. Madaminbek qo’shinlari bilan K.Monstrovning krestyanlar (dehqonlar) armiyasi o’rtasida qachon sovetlarga qarshi birgalikda kurashish uchun o’zaro bitim tuzilgan?
*A) 1919 yil 2 sentyabrda B) 1919 yil 2 avgustda
C) 1919 yil 2 oktabrda D) 1919 yil 2 noyabrda
11. Buyuk Britaniyaning Turkistondagi josusi, mayor Beylining ma`lumotiga kira, Katta Ergashning qo’shinida qancha yigit bo’lgan?

A) 15 – 20 ming *B) 20 – 24 ming C) 25 – 30 ming D) 30 – 35 ming

12. Isfara yonida Madaminbek va Ergash qo'shinlari o'rtasida o'zaro jang qachon bo'lgan?

*A) 1919 yil 14 aprel' B) 1918 yil 1 mart
C) 1920 yil 2 mart D) 1920 yil 5 mart

13. 1921 yil 16 dekabrda Xonobod qishlog'ida bo'lgan jangda….

A) qizil askarlar mag'lubiyatga uchradilar.
B) Madaminbek mag'lubiyatga uchradi.
*C) Katta Ergash mardlarcha halok bo'ldi.
D) Xolxo'ja Madaminbekni o'ldirdi.

14. Madaminbek surgunda bo'lgan joyni aniqlang?

A) Magadan *B) Nerchinsk C) Oymyakon D) Xabarovsk

15. «Madaminbek sovet saltanati davrida adolat va xaqiqat uchun tinmay kurash olib borgan yurtparvar ig'lon, Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining etakchisi edi». Madaminbekka ushbu ta`rif kim tomonidan berilganligini aniqlang?

*A) I.A.Karimov B) Sh.Yassaviy C) M.V.Frunze D) Q.Otaboev

16. "Madaminbek turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo'lmagan edi". Yuqoridagi so'zlar muallifini toping?

A) Shermuhammadbek *B) V.Kuvshinov
C) M.V.Frunze D) V.Kuybishev

17. Madaminbek rus krest'yanlar armiyasi generali K.Monstrov bilan qachon sovet rejimiga qarshi birgalikda kurashish uchun shartnoma imzoladi?

A) 1918 yil 8 dekabrda B) 1919 yil 2 martda
*C) 1919 yil 2 sentyabrda D) 1919 yil 5 noyabrda

18. Qachon Pomo'rning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida, Madaminbek boshchiligida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi?

A) 1919 yil 1 sentyabrda *B) 1919 yil 22 oktabrda
C) 1919 yil 1 noyabrda D) 1920 yil 2 martda

19. Istiqlolchilar orasida «Temur tuzuklari»ning o'qitilganligi haqida kim o'z xotiralarida qayd etgan edi?

A) A.Z.Validiy B) M.Cho'qaev *C) A.Sog'uniy D) Madaminbek

20. 1920 yil yanvar oyining o'rtalariga kelib, Katta Ergash qo'rboshining qo'shini mag'lubiyatga uchragach, Shermuhammadbek asosiy kuchlarni olib qayerga chekindi?

*A) Oloy vohasi B) Sharqiy Turkistonga
B) Afg'onistonga D) Buxoroga

21. Qachon istiqlolchilar qo'shini Bosh qimondoni Madaminbek va 2-Turkiston o'qchi diviziyasi qimondoni N.Veryovkin-Roxal'skiy o'rtasida Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida yarash bitimi imzolandi?

A) 1920 yil 1 mart *B) 1920 yil 6 mart
C) 1920 yil 1 may D) 1920 yil 6 may

22. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning qancha yigiti ham o'tgan edi?

A) 2000 B) 2500 *C) 3500 D) 4000

23. Madaminbek Xolxo'ja eshon tomonidan 1920 yil 14 martda qayerda xiyonatkorona o'ldirtirildi?
   *A) Qorovul qishlog'ida B) Marg'ilonda
   B) Qo'qonda C) Xo'jandda
24. Shermuhammadbekning yashagan yillarini ko'rsating?
   A) 1883-1960 yy. B) 1890-1970 yy. C) 1893-1980 yy.*D) 1893-1970 yy.
25. 1916 yilgi mardikorlik siyosati natijasida Shermuhammadbek qayerga yuborilgan edi?
   A) Moldaviya B) Avstriya C) Ukraina *D) Polsha
26. Bolsheviklardan birining e`tiroficha, ular uchun "Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bilsa, … shubhasiz eng xavflisi edi".
   *A) Shermuhammadbek B) Katta Ergash
   C) Omon polvon D) Xolxo'ja eshon
27. Shermuhammadbek 1922 yil 22 aprelda qayerda Farg'ona qo'rboshilarining navbatdagi qurultoyini o'tkazgan?
   A) Ergashtomda B) Qo'qonda
   *C) Qorabuva qishlog'ida D) Qorovul qishlog'ida
28. Shermuhammadbek qachon Farg'ona vodiysini tark etgan?
   A) 1922 yil sentabr B) 1922 yil oktabr
   C) 1922 yil noyabr *D) 1922 yil dekabr
29. Shermuhammadbek qachon Afg'onistonga o'tib ketdi?
   *A) 1923 yil bahorida B) 1923 yil yozida
   C) 1923 yil kuzida D) 1923 yil qishida
30. Shermuhammadbek 1923 yil oktabrda Peshovarga borib, qaysi davlatdan siyosiy boshpana so'ragan?
   A) Afg'oniston B) Hindiston *C) Buyuk Britaniya D) Turkiya
31. Shermuhammadbek 1970 yil 10 martda qayerda vafot etgan?
   A) Peshovar B) Deshli C) Anqara *D) Adana
32. Quyidagi ayollardan qaysi biri bol'sheviklarga qarshi kurashgan edi?
   *A) Shakarxon qo'rboshi B) Qumriniso ponsad
   C) Bibixolida xonim D) Qurbonjon dodxoh
33. Anvar posho Turkiyadagi qaysi partiyaning rahbarlaridan biri edi?
   A) «Genja turklar» *B) «Ittishod va taraqqiy»
   C) «Taraqqiyparvarlar» D) «Ulamo»
34. Anvar posho qayerda bo'lgan jangda o'ldirilgan edi?
   A) Buxoro *B) Baljuvon
   C) Qorategin D) Darvoz
35. Anvar posho o'limiga bag'ishlangan «Baljuvon» marsiyasining muallifi kim?
   *A) Cho'lpon B) Fitrat
   C) U.Nosir D) Botu
36. G'arbiy Buxoroda istiqlol uchun kurashning yetakchisi bo'lgan Mulla Abdulqahhor 4 yillik kurashlardan so'ng, 1924 yilning oxirlarida qayerda bo'lgan to'qnashuvlarning birida xalok bo'ldi?
   A) Buxoroda B) Karmanada

C) Kogonda *D) Qizilqumda

Yo’nalish shifri: 5220200

Yo’nalish nomi: tarix

Istiqlolchilik harakati tarixi fanidan test savollari

Variant №2

1. G’arbiy Buxorodagi qo’rboshi guruhlari Mulla Abdulqahhor boshchiligida 1922 yil boshida qayerga yurish qildilar?
   A) Samarqandga *B) Buxoroga
   C) Karmanaga D) Qorateginga
2. Quyidagi qo’rboshilardan qaysi biri Buxoroda amir tuzumini tiklash tarafdori bo’lgan?
   A) mulla Abdulqahhor B) Davlatmandbey
   *C) Ibrohimbek laqay D) Nasrullo qushbegi
3. Ibrohimbek qachon Afg’onistonga o’tib ketishga majbur bo’lgan?
   A) 1920 yilda B) 1922 yilda
   C) 1925 yilda *D) 1926 yilda
4. Ibrohimbek Toshkentda qachon qatl etilgan?
   *A) 1932 yilda B) 1933 yilda
   C) 1935 yilda D) 1938 yilda
5. "Muhammad Aminbek marg’ilonlik bilib, nihoyat siyosatdon, botir, tadbirli qahramon edi, -degan ta`rif kimga tegishli?
   A) Cho’lpon B) M.Cho’qaev
   C) A.Z.Validiy *D) Shahobiddin Yassaviy
6. "Turkiston-Turkiston xalqining yurtidir. Dushmanni yurtimizdan haydaymiz!» Ushbu sizlar muallifini toping?
   A) Shermuhammadbek *B) Madaminbek
   C) Katta Ergash D) Omon polvon
7. Quyidagilardan qirg’izlarning istiqlol uchun kurashiga boshchilik qilgan qo’rboshini toping?
   *A) Muhiddinbek B) Omon polvon
   C) Mashkam xoji D) Durdi Qilich
8. «U sovet saltanati davrida adolat va xaqiqat uchun tinmay kurash olib borgan yurtparvar o’g’lon, Farg’ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining yetakchisi edi». Madaminbekka berilgan ushbu ta`rifning muallifi kim?
   A) Sh.Yassaviy B) M.Cho’qayev
   C) Z.Validiy *D) I.Karimov
9. 1919 yil 20 fevralda 1500 kishidan iborat istiqlolchilar Namangan uyezdining qaysi shahrini egalladilar?
   *A) Chust B) Namangan
   C) Uchqirg’on D) Pop
10. 1919 yil oktabrda Madaminbek qayerdagi xal qiluvchi jangda og’ir mag’lubiyatga uchradi?

A) Namangan *B) Andijon
C) Marg'ilon D) Skobelev

11. 1919 yil 22 oktabrda Pomo'rning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida Madaminbek boshchiligida tuzilgan Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tarkibi necha kishidan iborat bo'lgan?
A) 16 kishi B) 20 kishi *C) 24 kishi D) 30 kishi

12. Madaminbekning qabri qayerda joylashgan?
A) Qorovul qishlog'i (O'zbekiston)
*B) Shig'ay ovuli (Qirg'iziston)
C) Kishitang qishlog'i (Tojikiston)
D) Qorovul qishlog'i (Qirg'iziston)

13. 1918 yil 1 oktabrda Xiva xoni Asfandiyorxon kim boshchiligidagi suiqasdchilar guruhi tomonidan o'z saroyida pichoqlab o'ldirildi?
*A) Eshim B) Junaidxon C) Durdi qilich D) G'ulomali

14. Kim Junaidxonni «Rossiya hukmronligi oldida bo'yin egishni xohlamagan davlat qahramoni», sifatida ta`riflagan edi?
A) I.Karimov B) P.YUsupov *C) A.Z.Validiy D) V.Kobozev

15. 1919 yil 7 aprelda RSFSRdan kim Junaidxon bilan muzokaralar o'tkazish uchun uning Taxta qal`adagi qarorgohiga kelgan?
*A) A.N.Xristoforov B) K.Uspenskiy C) V.Kolesov D) K.Osipov

16. 1920 yil 23 iyunda Xiva shahridagi qo'zg'olonga kimlar boshchilik qildilar?
A) qo'rboshilar B) shunarmandlar
*C) rushoniylar D) dehqonlar

17. Junaidxon 1924 yil 17 iyunda 20 nafar xamrohi bilan Afg'onistonning qaysi shahriga qochib o'tdi?
A) Qandahor *B) Hirot C) Qobul D) Qunduz

18. 1920 yili Buxoroda tuzilgan «Milliy ittihod» tashkilotining rahbari kim edi?
A) P.Usmonxijaev B) Fitrat C) Abdulqahhor *D) F.Xo'jayev

19. Ibrohimbek laqay 1926-1929 yillarda Afg'oniston poytaxti Qobul shahrida turgan paytida qayerda istiqomat qilgan edi?
*A) Qal`ai Fotu B) Bog'i Bobur
C) Bog'i Omonulla D) Darbanbog'

20. Buxoroning so'nggi hukmdori Said Olimxon 1893-1896 yillari qayerda taxsil olgan?
A) Moskvada *B) Peterburgda C) Samarada D) Rigada

21. Quyidagilardan qay biri Turkiston XKS raisi, so'ngra Buxoro nozirlar shirosi raisi muovini bo'lgan?
A) T.Risqulov B) N.Tiraqulov
C) Q.Otaboev *D) A.Rashimboev

22. 1920 yil mart oyida Turkistonni Markazga batamom qaram qilish maqsadida …
A) «Turkiston avtonomiyasi tig'risida nizom» tayyorlandi
*B) TASR yangi Konstitutsiyasi loyishasi ishlab chiqildi
C) Turkiston iz armiyasiga ega bilish shuquqidan mashrum etildi

D) Turkiston temir yil, pochta, xalq xijaligini mustaqil boshqarish shuquqidan mashrum qilindi.

23. 1917 yil 1 aprelda …
A) Turkiston XKS raisi F.Kolesov boshchiligidagi harbiy esholon Kogonga kelgan
*B) Samarqanddagi «Hurriyat» gazetasi chiqa boshlagan
C) Turkiston MIK raisi T.Risqulov yerli xalq kelgindilar rahbarligini rad qiladi, deb ta`kidlagan
D) SredazEKOSO 1-konferentsiyasi o'tkazilgan

24. Quyidagilar orasidan Shermuhammadbek so'zlarini aniqlang.
A) «Bosmachi» deb kimni aytish lozim
*B) «Mustaqil bir musulmon davlati tuzamiz!»
C) «Bu harakat Umumturkiston istiqloli uchun yuzaga kelgan haqiqiy millatchilarning harakatidir»
D) «1920 yil sentyabrda bosmachilarning soni 70 ming kishiga etdi va kuchli vahima uyg'otdi»

25. Qaysi masala natijasida P.Yusupov hukumati ag'darilgan?
A)Tribunallar masalasi B)paxta masalasi
C)XKP masalasi *D) vaqf masalasi

26. Turkiston mintaqasida istiqlolchilik harakati mag'lubiyatga uchraganidan 4 yil o'tgach…
*A) O'zSSR MIK huzurida Fanlar Komiteti tashkil qilingan
B) Katta Farg'ona kanali qazilgan
C) O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil qilingan
D) Osiyo va Afrika yozuvchilari Toshkent konferentsiyasi bo'lgan

27. Ibrohimbekka «Islom lashkarboshisi» unvoni berilgan yilda …
A) XXSR tuzilganligi e`lon qilingan
B) Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzilgan
*C) O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredazEKOSO) tuzilgan
D) Polvonniyoz Yusupov hukumati ag'darilgan

28. Noto'g'ri javobni aniqlang.
A) Buxoro ma`muriy jihatdan bekliklarga, bekliklar esa amloklarga bo'lingan
B) Poytaxt atrofidagi hududlar tumanlarga bo'linib, ularni amir nomidan qushbegi boshqargan.
C) Beklar, qozilar, raislar, tumanlardagi amlokdorlar qushbegi tomonidan tayinlangan
D) 20 dan ortiq bekliklardagi amlokdorlar va boshqa amaldorlarni bekning o'zi tayinlar edi.

29. XX asr boshlarida hunarmandchilik ixtisoslashuvi kengayib borgan. … yagona zardo'zlik markazi bo'lib dong taratgan.
A) Chust B) Marg'ilon C) Rishton *D)Buxoro

30. Ubaydulla Xo'jayevning hayoti va faoliyati sanasini eslang.
A) 1875-1919 *B)1878-1931 C) 1886-1938 D) 1896-1938

31. Turkiston Muxtoriyati hukumatida yer va suv boyliklari vaziri lavozimini quyidagilardan qay biri egallagan edi?

A) Mustafo Cho'qayev *B)Shidoyatbek Yurg'uli Agayev
C)Obidjon Mashmudov D)Solomon Gertsfel'd

32. Muhammadjon Tanishboyev hayoti va faoliyati sanasini eslang.

A)1890-1941 B)1968-1919 C)1890-1970 *D)1888-1936

33. Ahmad Zaki Validiy 1917 yilda qaysi nashr musharriri bo'lgan?

A) «Al-Izoh» jurnali *B) «Kengash» gazetasi
C) «Najot» gazetasi D) «Hurriyat» gazetasi

34. 1919 yil kuzida Moskvadan RSFSR MIK va hukumatining Turkkomissiya kelgan. Uning raisi …

*A) Sh.Eliava B) K.Osipov C) I.Tobolin D) F.Kolesov

35. Noto'g'ri javobni aniqlang.

*A)1917 y. fevralda Asfandiyorxon davolanishga ketgan paytda Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti Xorazmda tartib saqlab turgan
B)1917 yil 5 aprelda «yosh xivaliklar» manifesti e`lon qilingan
C) Mashkamai Adliya deb atalgan Milliy majlisga saylovlar o'tkazilgan
D) Majlis raisi qilib Shusaynbek Matmurodov, hukumat raisi etib Bobooxun Salimov saylangan

36. 1917 yil bahorida har qanday o'zgarishlarga qarshi chiqqan Buxoro qozikaloni kim edi?

A)Burshoniddin (Mirzo Urganjiy) *B)Nizomiddinxija
C) Sharifjon mahdum (Sadr ziyo) D)Abdusamadxo'ja

## XIV. YOZMA ISH SAVOLLARI.

1. Petrograddagi 1917 yil oktabr' davlat to'ntarishi Turkistoga qanday ta`sir o'tkazdi?
2. Qo'qonda Turkiston muxtoriyatining qonga botirib tor-mor keltirilishi qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Qizil armiya qismlari va arman dashnoqlarining Farg'ona vodiysidagi xunrezliklari haqida nimalarni bilasiz?
4. Katta va Kichik Ergashlar faoliyati haqida qanday ma`lumotlarni bilasiz?
5. Qo'rboshilar qurultoylari istiqlolchilik harakati tarixida qanday o'rin tutgan?
6. Istiqlolchilik harakatining g'oyaviy mafkurachilaridan kimlarni bilasiz?
7. Jadid ziyolilari va islom ulamolari istiqlolchik harakatida qanday o'rin tutganlar?
8. «Turkiston milliy birligi» tashkiloti va uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
9. Madaminbek qo'shinining mag'lubiyati sabablarini qanday izohlaysiz?
10. Madaminbekning xoinona o'ldirilishi haqida nimalarni bilasiz?
11. Shermuhammadbek tashabbusi bilan Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyatining tuzilishi va hukumat tarkibi haqida nimalarni bilasiz?
12. Shermuhammadbekning Afg'oniston va Turkiyadagi shayoti va faoliyati.
13. Qurbon Mamed Sardor – Junaidxon (1857-1938) faoliyati.
14. Xorazmda istiqlolchilik harakati etakchilari - Ota Maxsum, Madraimboy, Sa`dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek, Rahmonberdi sardor, Og'ajon eshon va G'ulomalixonlar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
15. Ibrohimbek Laqayning istiqlol uchun kurashi.
16. Buxoroda mulla Abduqahhor, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqa qo'rboshilarning faoliyati.
17. Anvar Poshoning Buxoroga tashrifi va kurashning yangi bosqichga ko'tarilishi shaqida nimalarni bilasiz?

## YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

### I VARIANT

1. Istiqlolchilik harakatining mohiyati va kelib chiqish sabablari.
2. Jadid ziyolilari va islom ulamolarining istiqlolchilik harakatiga ta`siri.
3. Qurbon Mamed Sardor – Junaidxon Xiva xonligida istiqlol uchun kurashning bosh rahnamosi.

### II VARIANT

1. Istiqlolchilarning qurultoylari. Kichik va Katta ergashlar faoliyati.
2. Madaminbekning rus krest’yanlar armiyasi bilan ittifoqi va uning Andijon, Ish va Jaloloboddagi mag’lubiyatlari.
3. Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyatining tuzilishi va hukumat tarkibi.

### III VARIANT

1. Istiqlolchilarning Madaminbek tomonidan yagona bayroq ostiga birlashtirilishi.
2. XXSRda istiqlol uchun kurash.
3. Ibrohimbek Laqay, mulla Abduqahhor, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqa qo`rboshilarning faoliyati.

### IV VARIANT

1. Farg’ona muvaqqat muxtoriyat hukumati va uning faoliyati.
2. Anvar Poshoning Buxoroga tashrifi va istiqlol uchun kurashning yangi bosqichga ko`tarilishi.
3. 1925-1935 yillarda Farg’ona vodiysidagi istiqlol janglari.

### V VARIANT

1. Turkiston istiqlolchilik harakatida qo`rboshilarning tutgan o`rni.
2. Buxoroda amir hokimiyatining ag’darilishi va istiqlol uchun kurashning boshlanishi.
3. SHermuhammadbekning istiqlol uchun kurashdagi o`rni.

### VI VARIANT

1. Istiqlolchilar o`rtasidagi o`zaro ixtiloflar va uning oqibatlari.
2. Buxoroda istiqlol uchun kurashning mag’lubiyatga uchrashi sabablari.
3. Istiqlolchilik harakatining yakunlari va saboqlari.

## «Istiqlolchi» boshqotirmasi

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | K | I | CH | I | K | E | R | G | A | SH | |
| 2 | B | A | CH | Q | I | R | | | | | |
| 3 | SH | I | R | O | I | U | L | A | M | O | |
| 4 | M | A | R | / | I | L | O | N | | | |
| 5 | M | O | N | S | T | R | O | V | | | |
| 6 | E | R | G | A | SH | T | O | M | | | |
| 7 | SH | E | R | M | U | SH | A | M | M | A | D |
| 8 | B | A | L | J | U | V | O | N | | | |
| 9 | F | R | U | Z | E | | | | | | |
| 10 | S | K | O | B | E | L | E | V | | | |

1. Istiqlolchilik harakatiga dastlab rahbarlik qilgan qo`rboshining ismi.
2. Farg’ona vodiysi istiqlolchilari tomonidan dastlabki qurultoy o`tkazilgan qishloq nomi.
3. Madaminbekni shahar mirshablari boshlig’i lavozimiga tavsiya etigan jamiyat.
4. Madaminbek harakat qilgan shahar.
5. «Dehqonlar armiyasi» qo`mondoni.
6. Madaminbek boshchiligida Farg’ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzilgan joy nomi.
7. Farg’ona vodiysidagi istiqlol kurashchilardan biri.
8. CHo`lponning Anvar poshsho o`limiga bag’ishlab yozgan marsiyasi.
9. Turkfront qo`mondoni.
10. Madaminbek va Veryovkin-Roxal’skiy o`rtasida sulh tuzilgan shahar.

## MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

Darslik va o`quv qo`llanmalarining (ularning to`la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini mustaqil o`rganish uchun joriy etiladi.

Istiqlolchilik qarakati tarixi fanidan nazariy va amaliy mashqulotlar o`tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo`naltirish, ularni taqlil qilish, mustaqil ishlashga o`rgatish zaruriyatidan kelib chiqadè. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan boqliq qolda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o`rganishga qaratilgan.

Mustaqil ish talabada fan bo`yicha qosil bo`lgan bilim va ko`nikmalarni ilmiy ijod orqali namoyon bo`lishini aniqlash maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ish mavzusi fanni o`tishning dastlabki soatlarida o`qituvchi tomonidan taqdim etiladi.

Talaba o`zi tanlagan mavzusi bo`yicha izlanishlar olib boradi. Dastlabki jarayonda mavzu bo`yicha adabiyot va manbalarni to`playdi. To`plangan adabiyot va manbalar asosida mavzuning ish rejasini tuzadi. Odatda mustaqil ish uchun sodda reja tuzish tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni yozish talabada ilmiy ko`nikmalarning shakllanishiga qam yordam beradi. Mustaqil ishni yozish jarayonida talaba tadqiqot ishlari uchun talab etilgan barcha jiqatlarga to`là rioya etishi shart.

Mustaqil ish talaba tomonidan qo`lyozma shaklda yozilib, uning qajmi A-4 formatda 12-15 betni tashkil etadi.

**YaNGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA**

Tarmoqlar" (Klaster) metodi

